

44.3

A-54

AKRAMOVA X.S., SULAYMONOVA F.O., TEMIROVA G.U.

**MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF
BOLALARDA OG'ZINI MONOLOGIK NUTQNI
RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA DIDAKTIK
O'YINLARDAN FOYDALANISH
TEKNOLOGIYASI**

Ma'rifat, tarbiyachi, talabalar uchun uslubiy qo'llanma



74.3 | 445065
A-54 | Akramova X.S.
Maktabgacha
yoshdagi ...

Китобларни вақтида топшириш варағи				

4

41.3
A-54

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

AKRAMOVA X.S.
SULAYMONOVA F.O.
TEMIROVA G.U

**MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF
BOLALARDA OG'ZAKI MONOLOGIK NUTQNI
RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA DIDAKTIK
O'YINLARDAN FOYDALANISH
TEXNOLOGIYASI**

Logoped, tarbiyachi, talabalar uchun uslubiy qo'llanma



Toshkent
"Innovatsiya-Ziyo"
2022

UDK : 517.2
BBK: 22:161
A 31

Akramova X.S., Sulaymonova F.O., Temirova G.U

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda og'zaki monologik nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish texnologiyasi. *Uslubiy qo'llanma*. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 60 b.

Ushbu uslubiy qo'llanma maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarga ta'lim berishda didaktik o'yinlar asosida bolalarning og'zaki monologik nutqini o'stirish va savodga tayyorgarlikda logoped, tarbiyachilar va ota-onalarga yordam berish maqsadida ishlab chiqildi.

Uslubiy qo'llanma maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari, logoped va defektologiya yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Xolboyeva

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Q.Yuldashova

Jizzax shaxri 5-sonli DKTIMTT direktori

Ushbu uslubiy qo'llanma Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2021-yil 24-dekabrda N^o5-sonli bayonnoma).

ISBN 978-9943-6541-1-2

© Akramova X.S. va boshq., 2022.

© "Innovatsiya-Ziyo", 2022.

KIRISH

Barcha taraqqiy etgan mamlakatlarda salomatlik insonning eng muhim boyligi hisoblanadi. Sog'lom inson istalgan jamiyatda katta kuchga ega yaratuvchilik vazifasini bajaradi.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shu bois bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk kadrlar bo'lib voyaga yetishida maktabgacha ta'lim tarbiyasi juda - muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu tizimga alohida e'tibor qaratmoqda. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 22 dekabrda 802-son Qaroriga asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta'lim-tarbiya berish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi"ning ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'nalishida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini va nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlashga qaratilgan alohida e'tiborga asosan «Ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi

zamon talablari asosida takomillashtirish birinchi darajali vazifamizdir».

“Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5270-sonli 2017-yil 1-dekabrda farmoni va 2017-yil 30-sentyabrda PF-5198-sonli “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va bizning faoliyatimizga tegishli bo‘lgan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar maxsus pedagogika sohasida ham bir qator muammoli vaziyatlarni ijtimoiy hal etishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Maktabgacha ta‘lim muassasasi o‘quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘lim berishda kompetensiyaviy yondashuv, o‘sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, axloqiy me‘yor va qadriyatlarini o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutadi.

Boshlang‘ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi.

***Kompetensiya** bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang‘ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat‘iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalariga quyidagilar kiradi:*

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.

O‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi.

O‘quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me‘yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tutish mahorati.

Bilish kompetentsiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Bolaning kompetentsiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- *jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;*

- *ijtimoiy-hissiy rivojlanish;*

- *nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;*

- *bilish jarayonining rivojlanishi;*

- *ijodiy rivojlanish. Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarimizni sog'lom, aqlli, tabiatga, atrof muhitga muhabbat ruhida tarbiyalash biz, kattalarning dolzarb va kechiktirib bo'lmas vazifalarimizdir.*

Aqli zaif bolani sog'lom, har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda bolalar muassasaning o'rni beqiyos. Aqli zaif bola maktabgach ta'limga kelganda birinchi marta jamoaga qo'shiladi, o'z tengdoshlari, kattalar bilan muloqot qiladi, tevarak-atrof bilan tanishadi, o'zligini namoyon eta boshlaydi.

Har kuni, har daqiqada borliqni, tevarak-atrofdagi hodisa va buyumlarni, ularning hususiyati va nomlanishini «kashf» etadi.

Demak, tarbiyachilarning vazifasi: birinchidan bolalarning hayotini, salomatligini muhofaza qilish bo'lsa, ikkinchidan, mumkin qadar shunday «kashfiyotlar» sonini ko'paytirish, ularni taqdim etish usullarini rang-barangligini ta'minlashdan iboratdir. Aqli zaif bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish va tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish - ota-onaga, vatanga muhabbat uyg'otish bilan barobardir.

Chunki, tabiat bilan yaqin munosabatda bo'lish ularga ijobiy ta'sir qiladi. Sofdil, mehribon, e'tiborli, mehnatsevar bo'lishga o'rgatadi. Mashg'ulotlar, o'yinlar jarayonida insonlar tabiatning ajralmas bo'lagi ekanligi, tabiat – bizning atrofimizni o'rab turgan suv, havo, quyosh, o'simliklar, hayvonlar, jamiki jonli va jonsiz mavjudotlardan tashkil topganligi, tabiatsiz hayot bo'lmasligi, shuning uchun biz tabiatni ardoqlashimiz lozimligi uqtirib boriladi. Shu bilan birga halokatga olib keluvchi, insonlar hayotiga xavf

soluvchi, salomatligiga ta'sir etuvchi vositalar haqida ham tushunchalar berib boriladi. Bundan tashqari, aqli zaif bolaning sog'lom turmush tarzini yoshligidanoq shakllantirib borishda insonlararo muvaffaqiyatli muloqot qilishga o'rgatib, odob - ahloq, hurmat - e'tibor, mehr - muruvvat kabi ijobiy hislatlar singdiriladi. Aqli zaif bolani faol muloqotda bo'lishga odatlantirib boriladi. Bunda ota-ona va boshqa oila a'zolaridan tashqari tarbiyachilar va guruhdagi tengdoshlarining unga bo'lgan munosabat shakllari juda muhimdir. Muomala - bolaning umumiy ruhiy rivojlanishda, shaxs sifatida shakllanishida, o'z-o'ziga baho berish malakasini egallashida muhim ahamiyatga ega. Kichkintoylar bilan ularning qiliqlari hususida suhbatlashib turiladi. Aqli zaif bolalar maktabgacha ta'limdanoq hayot haqida, hayot yo'lida uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar, havf-hatarlar va ularni yengish kerakligi o'qtirib boriladi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda monologik nutqga ta'lim-tarbiya berishda o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish, ularning ruhiyat, shaxsiy qobiliyatlari, intilishi va ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik g'oyalari sodiq holda voyaga yetib borishni ta'minlash, ularni maxsus maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat.

Har bir aqli zaif bola alohida holda o'sadi va rivojlanadi, biroq shunga qaramay barcha bolalar rivojlanishning ma'lum ketma-ketlikdagi bosqichlaridan o'tadilar. Ushbu bosqichlarning har birida bir xil yoshdagi bolalar uchun ayrim xususiyatlar kuzatiladi.

O'yin maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin aqli zaif bolalarning kelajakdagi o'quv va mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanib borishini belgilaydi.

Aqli zaif bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir. O'yin aqli zaif bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa xodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir, ijodiy va syujetli o'yinlarda aqli zaif bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xislatlari ham shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning o'yinlari atrofdagi narsa va xodisalarni bilish quroli bo'lishi bilan birga, yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega. O'zgacha qilib aytganda, o'yin qudratli tarbiya qurolidir. Aqli zaif bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin.

Agarda biz aqli zaif bolalarning o'yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o'yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari (kimning nimaga ko'proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz. Shuning uchun aqli zaif bolalarning o'yin faoliyatlari, ularning individual ravishda o'rganish uchun juda qulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar odatda o'zlari yolg'iz o'ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar.

O'yin faoliyati aqli zaif bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Inson birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallashi uchun odam, avvalo, yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, uquvlar va sodda tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga aqli zaif bola yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, o'yin faoliyati orqali erishadi.

Nutqning har ikkala shakli uchun ham keng tarqalgan bo'lib, birinchi navbatda ular muloqot funksiyasini bajaradilar. Monologik va dialogik nutq har doim ham ijtimoiy yo'nalishga, boshqa shaxsga qaratilgan. Og'zaki monologik, og'zaki nutq kabi, til kodlari vositalaridan tashqari, bir qator prosodik va off-til vositalari mavjud va "grammatik kamchilikning muayyan o'lchovi bilan davom etishi mumkin". Shunday qilib, uning grammatik tuzilishi dialogik nutqning grammatik tuzilishiga yaqinlashishi mumkin.

Aloqa jarayonida monologik nutq organik ravishda dialogga aylanadi va monolog dialogik xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Shunday qilib, izchil nutqning har ikkala shaklini takomillashtirish nutqni rivojlantirish jarayonida yetakchi rol o'ynaydi.

Og'zaki nutqiy muloqatga o'rgatish tinglab tushunish va gapirish orqali amalga oshiriladi. Bu yerda gapiruvchi axborot berish jarayonida nutqiy muloqatni amalga oshirsa, tinglovchi esa uni tinglash va tushunib olish orqali nutqiy muloqatni amalga oshiradi

Suhbat davomida gapiruvchi bilan tinglovchi rollari almashib turiladi. Og'zaki nutqiy muloqat bir tomonga yo'naltirilgan bo'lishi ham mumkin. Bunda birinchi shaxs faqat gapiradi, ikkinchi shaxs va qolganlari faqat tinglaydi.

Monologik nutq - so'zlovchining o'ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e'tiborda tutmaydigan nutq shakli. Ayrim dramatik asarlarda personajning Monologik nutqi tomoshabinga qaratilgan bo'ladi. Monologik nutq nasriy asarlarda ham bor. Nazmda esa asosiy nutq shakllaridan biri hisoblanadi. Ba'zan Monologik nutqda asarning kulminatsion nuqtasi bayon etiladi. Monologik nutq uchun, odatda, tuzilish va mazmun jihatdan o'zaro bog'liq, o'ziga xos kəmpozitsion qurilishga va mantiqiy tugallikka ega bo'lgan matnning ma'lum bo'lagi xos bo'ladi. Monologik nutq og'zaki (nutq bayon qilish) yoki yozma (publitsistika, memuarlar, kundaliklar) shaklida ifodalanishi mumkin. Monologik nutqning og'zaki shaklida ohang (intonatsiya) muhim o'rin egallaydi, yozma Monologik nutqda esa ohang matnning sintaktik konstruk-siyasiga, mantiqiy urg'u tushuvchi so'zlarning joylashish o'rniga bog'liq. Monologik nutq notiqning asosiy nutqiy shakllaridan hisoblanadi; lingvo-stilistik usul bo'lib, bir qancha turlari mavjud. Mas, ta'sir qiluvchi (targ'ib qiluvchi) Monologik nutq, dramatik Monologik nutq, lirik Monologik nutq, hikoya qiluvchi (axborot beruvchi) Monologik nutq Monologik nutqning ochiq nutq va ichki nutq kabi ko'rinishlari mavjud; ochiq Monologik nutqda personaj o'z nutqini ovoz chiqarib bayon etadi; ichki Monologik nutqda monolog personajning ichki nutqi, o'ylari shaklida namoyon bo'ladi

Monologik nutq turlari

1. hikoya
2. ta'riflash
3. tasvirlash
4. muxokama
5. suhbat

Monologik nutqning xususiyatlari

1. Monologik nutq faqat bir tomonga yo'naltirilgan bo'ladi.
2. U rejali bo'ladi.
3. U qisman tayyorlangan bo'ladi.

4. U uzilmay davom etadi.
5. U rejali bo'lganligi sababli mantiqiy davom etadi.
6. U bir kontekst, matn asosida olib boriladi.
7. Unga vositalar, tayanchlar, sharoit ta'sir ko'rsatadi.
8. Uslub ta'sir qiladi.
9. Monolog ta'sirchan, ma'lumotli, his-xayajonli bo'ladi, kimgadir nimagadir qaratiladi.
10. Nutq vaziyatli bo'ladi. Bir sharoitni, vaziyatni ko'zda tutadi. Monologik nutqning quyidagi lingvistik qiyinchiliklari xususiyatlari ham muxim o'rin tutadi, ular tasirini ko'rsatadi.

1. Talaffuzi qiyin so'zlarning ishlatilishi.
2. Gaplarning kitob uslubiga mansubligi.
3. Nutqni bayon qilishga bog'liqlik bo'lishi.

Aqli zaif bolalarga monologik nutqni muntazam o'qitish taxminan besh yoshdan boshlanadi. Lekin bunga tayyorgarlik bola hayotining ikkinchi yilida - bolalarning o'qish va sanoq she'rlarni yodlash jarayonida boshlanadi. To'rt yoshdan boshlab bolalar monologning tavsiflash va bayon qilish turlarini qo'llashga, Yetti yoshdan boshlab esa - qisqa mulohaza yuritishga qodir bo'ladilar. Monologning qiyinligi shundaki, u diqqat-e'tiborini o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan voqea yoki badiiy asarga qaratgan boladan bir vaqtning o'zida nafaqat narsalar, hodisalarni payqash, balki ular o'rtasidagi bog'liqlikni ham sezishni talab qiladi. Bu bir vaqtning o'zida fikrlash va nutqni rivojlantirish vositasi hisoblangan xotirani ham ishga solishga olib keladi.

Kattalar bolaga g'amxo'rlik ko'rsatib, monologlar uchun mavzu qidirish, bolalarni tinglash orqali bu mushqulotlarni yengib o'tishda ularga yordam beradilar. Maktabgacha yoshdagi katta bolalar nutqini rivojlantirishdagi asosiy natijalar muloqot sohasidagi chuqur o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Tengdoshlar bilan muloqot qilish birinchi o'ringa o'tadi. Bola o'z tengdoshini kattalardan afzal ko'ra boshlaydi

Qayta hikoya qilishni o'rgatish metodikasi

Qayta hikoya qilishni o'rgatish metodikasi Qayta hikoya qilib berish va hikoya to'qish monologga o'qitish metodi hisoblanadi. Bolalar monologik matnlarni qayta hikoya qilib beradilar, real va hayoliy voqealar haqida hikoya qiladilar, hikoyalar to'qiydilar.

Monologik nutqni o'qitish metodini o'zlashtirib olish pedagog, defektolog, tarbiyachi, logoped uchun quyidagilarni anglatadi: bolalarni tinglashni o'rganish; qayta hikoya qilish va hikoya qilish, shuningdek hikoya to'qishda bolalarga yordamlashishni o'rganish. Qayta hikoya qilish - eshitilgan badiiy asarni ravon, ifodali aytib berish. Qayta hikoya qilish nisbatan oson nutqiy faoliyatdir, chunki, bola tayyor mazmuni qayta aytib beradi, bunda u muallifning tayyor nutqiy shakllaridan (lug'at, so'z iboralari, tuzilish), uni o'qiyotgan tarbiyachining nutq ifodaliligi usullaridan foydalanadi. Ammo bu mexanik ravishdagi takrorlash emas, balki matnni tushungani holda erkin va emotsional aytib berishdir.

Qayta hikoya qilib berishni o'rgatish vazifasi ilk yosh guruhlarida asta-sekin qiyinlashtirilib boriladi - yaxshi tanish ertaklar, hikoyalarni aytib berish, yangi o'qib chiqilgan asarlarni aytib berish, hikoyachi shaxsini o'zgartirgan holda (birinchi shaxs nomidan emas, balki uchinchi shaxs nomidan va aksincha) aytib berish, tarbiyachi rejasi asosida aytib berish, bolalar bilan birgalikda tuzilgan reja asosida aytib berish, o'xshashlik asosida (analogiya bo'yicha) aytib berish (qahramonni, mavsumni o'zgartirish va h.k.), sahnalashtirgan holda aytib berish (o'yinchoqlar siluyetlar), bolalar tanlovi bo'yicha aytib berish.

Hikoyalar turlari va ularni o'rgatishning izchilligi

Hikoya - biron-bir fakt, voqeaning mustaqil tuzilgan keng qamrovli bayonidir.

Hikoya tuzish - hikoya qilib berishga nisbatan ancha murakkab faoliyatdir, chunki bolalarning o'zi ushbu mavzu bo'yicha hikoya mazmuni, uning nutqiy shaklini tanlashlari, uni ketma-ket (tarbiyachi yoki o'z rejasi asosida) bayon qilishlari zarur.

Aqli zaif bolalar uchun hikoyalarning uchta turini ko'rsatish mumkin:

-qabul qilinishiga qarab aytiladigan hikoyalar (bolaning hikoya paytida nimani ko'rayotganligi haqida hikoya);

-xotira asosida hikoya qilish (bola hikoya aytish paytida nimalarni qabul qilganligi haqida hikoya); -tasavvur asosida hikoya qilish (o'ylab topilgan hikoya).

Qabul qilish va xotira asosidagi hikoyalar faktli materiallarga asoslangan bo'lib, bolalar faktlarni bayon qiladilar.

Tasavvurga asoslangan hikoyalar ijod mahsuli bo'lib, unda hikoyachi bola mavzuga qarab o'z tajribasining shaklini o'zgartiradi hamda yangi vaziyat va obrazlar yaratadi. Bitta mashg'ulotda bitta fikrda hikoyalar turlarining aralashib ketishiga yo'l qo'yish mumkin: bola o'yinchoqni tavsiflab (qabul qilish asosidagi hikoya) bo'lganidan so'ng uni qayerda sotib olganligi yoki uni qanday qilib tuzatganini (xotira asosidagi hikoya) aytib berishi mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan barcha hikoyalar turlari ta'lim maqsadlaridan kelib chiqqan holda tavsiflash, bayon qilish yoki shunchaki mulohaza yuritish sifatida bajarilishi mumkin.

Monologik nutqning o'quv vazifasi mustaqilligi, tugallanganligi, qismlari o'rtasida mantiqiy aloqasining mavjudligi bilan tavsiflanadigan ravon fikr bildirishni o'rgatishdan iboratdir, ya'ni bu -qisman (nutqiy) ko'nikmalar va ona tilida fikr bildirish uchun zarur bo'lgan murakkab qobiliyatlarni shakllantirish demakdir.

Ravon nutq ustidagi ishlarning asosiy rivojlantiruvchi vazifasi - bolalarning fikrlashini, o'z fikrini til vositalari yordamida aniq ifodalash qobiliyatini rivojlantirish, nutqiy fikrlashga oid vazifalarni mustaqil ijodiy xal etish ko'nikmalarini shakllantirish, xotirani, tasavvurni faollashtirishdan iborat.

Vazifalarni muvaffaqiyatli xal etish uchun pedagog, defektolog, tarbiyachi o'ziga quyidagilarni aniq tasavvur qilish zarur: 1 - ravon nutqni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan til material; 2 - ushbu materialda shakllantirish mumkin bo'lgan nutqiy ko'nikmalar va maxoratlar umumiyliigi;

- ushbu ko'nikmalarni "oddiydan murakkabga" tamoyili asosida mashq qilishning ketma- ketligi.

Monologik nutq hikoya qilishni o'rgatish jarayonida shakllanadi - bolalar og'zaki monologik nutqning ikki toifasini - qayta hikoya qilish va hikoya qilish, tavsiflovchi hikoyalar, bayon qiluvchi hikoyalar, isbotlovchi hikoyalarni o'zlashtirib oladilar.

Yuqorida qayd etilganidek, ravon nutqning ikki turi mavjud: dialogik (dialog) va monologik (monolog) nutq.

Dialog - ikki yoki bir necha kishining o'zaro suhbat. Suhbat maqsadi odatda biron narsa haqida so'rash va javob olish, biron-bir harakatga undashdan iborat.

Monolog - bir shaxsning ravon nutqi. Monologning maqsadi - biron-bir fakt haqida xabar berishdir.

Dialog o'z uslubiga ko'ra asosan, og'zaki nutq, monolog esa odatda, kitobiy uslubdagi nutq hisoblanadi. Dialogik ravon nutqda ko'pincha noto'liq gaplardan foydalaniladi, tushirib qoldirilgan gap a'zolarini so'zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib tushunib oladi, va og'zaki uslubdagi, standart tuzilishdagi (qolip) to'liq gaplardan ko'proq foydalaniladi: "u kelmay qo'ya olmaydi" ya'ni u albatta keladi. Bunday tuzilishdagi gaplar monologik nutqda qo'llanilmaydi. Bolalar dialogik nutqni har kuni maishiy hayotda uchratishlari sababli uni ancha oson o'zlashtirib oladilar. Biron-bir narsani tavsiflashda, biron narsa haqida bayon qilishda yoki mulohaza yuritishda nutqning monologik shaklidan foydalaniladi. Nutqning ushbu ikki turlari o'rtasidagi farq matn ichidagi gapning mantiqiy aloqa turi bilan belgilanadi. Monolog doimo vaqtli yoki sabab-oqibatli aloqada bo'ladigan (bir-biriga nisbatan) borliq faktlari haqida xabar qiladi.

Vaqtinchalik aloqa ikki tomonlama bo'lishi mumkin: faktlar haqiqatdan ham bir vaqtdalik yoki ketma-ketlik munosabatlarida bo'lishi mumkin. Pedagog, defektolog, tarbiyachilar o'yin o'ynatishni unutmasligi lozim, bolalarning fikrlash xususiyati shundayki, ular suhbat mavzusini oson unutadilar, har bir mayda-chuyda narsaga chalg'iyveradilar. Bola qanchalik kichik bo'lsa, u shunchalik tezroq chalg'iydi, hozirgina o'zi aytgan narsalarni tezlik bilan unutadi va boshqa mavzuga o'tadi. Aqli zaif bolalar atroflaridagi kattalar uchungina mansub bo'lgan, xali o'zlarining kuchlari ham, aqllari ham etmaydigan juda ko'p narsalarni faqat o'yin faoliyati orqali o'zlashtiradilar. O'yin orqali ular voqelikdagi narsa va hodisalarni biladilar.

O'yinning aqli zaif bolalar psixik taraqqiyotidagi qudratli roli mashxur pedagog va psixologlardan tashqari mutafakkir yozuvchilarni ham diqqat e'tiborini jalb etgan. Masalan rus yozuvchilaridan biri M.Gorkiy bolalar o'yin va uning moxiyati haqida shunday degan edi. «O'yin bolalar uchun o'zlari yashab turgan dunyoni bilish hamda uni o'zgartirish qurolidir». O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki unda bolalarga mansub bo'lgan mexnat ham, narsalar haqida fikr yuritish xam,

xayol qilish, dam olish va xushchaqchaqlik manbalari ham mujassamlashgan. Mana shu jarayonlarning barchasi o'yin faoliyatida namoyon buladi. Rolli o'yinni vujudga keltiruvchi muhim omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) go'daklik davridagi predmet bilan uni harakatlantirish orasidagi bog'liqlik o'z ahamiyatini yo'qota boradi, natijada predmet bilan harakat alohida hukm surish imkoniyati tug'iladi va bola ularni alohida umumlashgan tarzda aks ettira boshlaydi;

2) aqli zaif bola haqiqiy o'yinchoqlar o'rniga ularning asl mohiyatini to'la aks ettirmaydigan yasama va beo'xshov nusxalaridan keng foydalanadi (fabrikada tayyorlangan qo'g'irchoq yoki avtomobil o'rniga uyda yasab berilgan shunday narsalar bilan qanoatlantirish);

3) aqli zaif bolaning o'z xatti-harakatlari kattalarning ishlaridan farqlanishiga intilishi, unda o'ziga xos shaxsiy harakat ko'nikmasining paydo bo'lishi;

4) aqli zaif bolada o'z xatti-harakatini kattalar faoliyati bilan qiyoslash, harakatlarining mohiyatini muvofiqlashtirish va aynan tuzilishi jihatidan bir-biriga yaqinlashtirish istagining tug'ilishi;


5) aqli zaif bola kattalarning hayoti va faoliyatida uchrab turadigan, odatdagi turmush muammolarini o'zida aks ettiruvchi, ma'naviy va maishiy ko'rinishga ega bo'lgan hayot jabhasini o'z xatti-harakatida izchil ravishda tiklashga (ularning rolini bajarishga) urinishadi.

O'yin faoliyati o'zidan-o'zi vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit mavjud bo'lishi kerak; a) bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to'g'risidagi xilma-xil taasurotlar tarkib topishi; b) har xil ko'rinishdagi o'yinchoqlar va tarbiyaviy ta'sir vositalarining muxayyoligi; v) bolaning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko'rsatish uslubi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Biz amaliyot davrida maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabga tayyorlov guruhi bolalarining intellektual rivojlantirishga oid o'yinlar, hamda ayrim psixologik treninglarni olib bordik va ularning natijalarini pedagogik-psixologik jihatdan tahlil qildik va quyidagi o'yinlardan namunalar keltiramiz.

"Minora quramiz "o'yinini olib borish (3-5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun)



Agar sizda turli o'lchamda kubiklar bo'lsa aqli zaif bolalar bilan quyidagi o'yinni o'ynang shunday qilingki bola o'zi qurayotgan minorasi mustahkam pishiq bo'lishi uchun paski g'ishti yirik bo'lishi shartligini tushunishini minora balandlashgan sari g'ishtchalari ham maydalashib borishi lozimligini anglagan bola o'z minorasini aynan shunday quradi.Unga minora qurish jarayonida har safar g'ishtchalarning eng yirigini olishni o'rgating.Ularni taqqoslash uchun bir-biriga qo'yib ko'rish kerak.Minorani haqiqiy gishtcha-kubiklardan qurib bo'lgach,karton g'ishtlardan ham shu tartibda yasashga o'tish mumkun.Agar bolaga qo'g'irchoq berib,u minoragacha yoki zinapoyaga qanday qilib ko'tarila olishni ko'rsatsangiz, bolaning qiziqishini yanada ortirgan bo'lasiz. Shuningdek bola shakllarini ketma-ket joylashtirish mohiyatini ham anglab oladi Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari "Minora quramiz" oyini orqali mehnat faoliyatiga o'rganishadi, ham diqqat xotirasini mustahkamlashadi va ziyraklilik, tezkorlik hamda ilg'or harakatlilik hislatlarini o'zida mujassamlashadi.



“Kamalak rang pufaklar” o‘yini

Aqli zaif bolalar narsalarning rangiga e’tibor qilishni o‘rganishlari uchun bir xil rangli narsalarni ajratishga o‘rgatish maqsadida shu o‘yinni taklif etish foydalidir. Buning uchun qalin qog‘ozga 6-7 ta rangli tasmalarni yopishtirib qo‘yish va rangli qog‘ozdan doirachalar qirqib tayyorlash lozim. Tasmalar- ip, doirachalar –pufak bo‘ladi. Bolaga pufaklarni ipga bog‘lashni taklif eting, buni qanday qilish lozimligini ko‘rsatib bering. Shundan so‘ng, mustaqil ishlashlariga sharoit yaratish mumkin, faqat xatoga yo‘l qo‘ygan hollardagina yordamlashib turasiz.

Bolalar “Kamalak rang pufaklar” o‘yini orqali turli ranglarni ajratishni o‘rganishadi va ularni farqlashni anglashadi. Bu o‘yin orqali bolalar tasavvur qilish qobiliyatlarini shakllantiradilar hamda estetik jihatdan ranglarni joy-joyiga qo‘yishni farqlashadi. Shuning uchun bu o‘yinni bajartirishga harakat qildim.



"Uchinchi ortiqcha"

(3-5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun)

1. Kattalar uchta so'z aytishlari kerak. Masalan, "burgut", "chumchuq", "yo'lbars". Bola aytilgan so'zlarning barchasi jonli ekanligini, lekin burgut va chumchuq – qush, yo'lbars esa hayvon ekanini aytishi kerak.



2. Bolaga "sut", "sharbat" va "kulcha" so'zini aytishingiz, aqli zaif bola esa bularning barchasi yegulik ekanini, lekin sut va sharbat ichilishini, kulcha yeyilishini aytishi lozim. Boshida bola bu o'yinga uncha tushunmasligi mumkin, lekin siz unga yordamlashib nima jonli, nima jonsiz, yeyiladigan, ichiladigan va hokazolar to'g'risida ma'lumot berib o'tishingiz kerak. Birinchi o'yinda u bir narsani, ikkinchisida esa ikkita narsani bilib oladi. Natijada bolalar nafaqat aytilgan predmetlarning qanday va nima maqsadda ishlatilishinigina emas, balki mantiqiy fikrlashni ham o'rganadi.



Bu yoshdagi aqli zaif bolalarni harakatli o'yinlar bilan ham o'zingizga jalb etishingiz mumkin. Masalan, samolyot qanday qanot yozib uchishini, qanday tovush chiqarishini, ayiq polvon qanday yurishini, ovozining yo'g'onligini ko'rsatib, bolalar bilan xona bo'ylab yuring.

"O'rnini top!"

(3-5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun)

1. Bu o'yin aqli zaif bolalarni predmet larni qayerga tegishli ekanini aniqlashlariga yordam beradi. Buning uchun siz qoshiq, kitob, daraxt, likopcha, doska, qalam, sumka, javon, lampa va hokazolarning kichikroq rangli suratlari va kattaroq qilib chizilgan oshxona, tabiat va maktab suratlarini yonma-yon qo'yib chiqishingiz kerak. Shundan so'ng bolalar kichikroq hajmdagi predmetlar qayerga tegishli ekanligini topishi kerak.

2. Aqli zaif bolalarga bundan ham qiziqarliroq bo'lishi uchun o'rmon va hovlilari uy-joy hamda uy va yovvoyi hayvonlar tasvirlangan suratlarni chizing. Barcha rasmlarni aralashtirib chiqing. Bolalar hayvonlar uyda boqiladimi yoki o'rmonda yuradimi, shuni topib o'rniga qo'yishlari kerak. Bu o'yin o'ynalayotganda o'rmonda va uyda yana qanday hayvonlar bo'lishi mumkinligi haqida aytib o'ting va iloji boricha ularning rasmlarini chizib ko'rsating. Keyingi safar yana shu o'yinni o'ynayotganingizda uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarning qanday ovoz chiqarishi, qanday yurishi haqida ham gapirib bering. Bu o'yin-mashg'ulot bolalarning hayvonot dunyosi haqidagi tasavvurlarini oshiradi.

"Bu nima?"

(3-5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun)

5 yoshli aqli zaif bolalarga unchalik murakkab bo'lmagan shakllarni nuqtalar yordamida chizib chiqing. Bolaga esa bu nuqtalarni birlashtirish kerakligini tushuntiring. Bola nuqtalarni birlashtirib bo'lgandan so'ng uning nima ekanligini aytadi va ichini bo'yab chiqadi. Rasmni bo'yashdan oldin uning rangi qanday bo'lishi kerakligi haqida ham ma'lumot berib o'ting. Chizilgan shaklni u o'zi istagan ranglarda bo'yashiga ham imkoniyat bering. Muhimi, u turli ranglardan foydalanishi kerak.

“Ko‘zgu” o‘yini

(3-5 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun)

Tarbiyachi: “Menimcha, har biringizning uyingizda ko‘zgu bo‘lsa kerak, shundaymi? Ko‘zqusiz ko‘rinishimiz qandayligini bilish qiyin kechadi. Xo‘sh agar qo‘l ostingizda ko‘zgu bo‘lmasa nima qilish kerak? Kelinglar, bugun sizlar bilan ko‘zgular o‘yinini o‘ynaymiz. Hozir har biringiz o‘zingizning juftingizni topib, bir-biringizga qarab turib olasiz. Kim odam, kim ko‘zgu rolini bajarishini aniqlab oling. Keyin esa rollaringiz bilan almashasiz. Ko‘zgu odamning har bir harakatini aniq takrorlasin. Chunki noaniq harakat qiluvchi ko‘zgular bo‘lmaydi. Tayyormisiz? Qani bir harakat qilib ko‘raylikchi!”

Tarbiyachi o‘ziga sherik topib o‘yinni qanday o‘ynash kerakligini bolalarga ko‘rsatadi. Shundan so‘ng bolalar mustaqil harakat qila boshlaydilar. Tarbiyachi esa bolalarning harakatlarini kuzatib boradi. Qiynalayotgan juftliklarga yordam beradi.

“Nima dumalaydi?”

(3-5 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun)

Bu o‘yin aqli zaif bolalarni narsalarning shakli bilan tanishtiradi. Bolalar bilan quvnoq o‘yin-musobaqa uyushtiring, kim o‘z shaklini pol yoki stolga o‘rnatilgan o‘yinchoq darvozadan tezroq dumalatib o‘tkazadi. Dumalatish uchun sharcha va kubni taklif eting. Avvaliga bolalar uchun darvozaga nimani dumalatib kiritishning farqi bo‘lmas, lekin bir necha urinishdan so‘ng u sharchani tanlagan odam yutayotganini tushunib qoladi. Xuddi shu paytda – nega aynan sen shu shaklni, sharni dumalatmoqchisan? – deb so‘rang. Unga o‘z xatti-harakatini asoslash, xulosa chiqarishiga yordamlashing. “Sharcha dumalaydi, kubik dumalamay to‘xtab qoladi”. Bola e‘tiborini kubdagi o‘tkir qirralarga qarating. Sharning tekisligini, qirralari yo‘qligini ko‘rsating. Shar va kubik tasvirini chizib ko‘rsating. Rasmda ular oddiygina doira va to‘rtburchak shaklida namoyon bo‘ladi. Bolaga shar va kubik rasmini chizishni taklif qiling.

"Ushlab ol va nomla" o'yinidan foydalanishni tavsiya etamiz.
Bunda:

Defektolog: - Men senga koptokni otaman va bitta predmetni bildiruvchi so'zni aytaman, sen menga koptokni otayotganingda shu so'zni ko'plikda aytasan, - deya taklif etadi.

O'yinning borishi: Defektolog koptokni bolaga otadi va "uy" so'zini aytadi, bola koptokni qaytarib otadi va "uylar" so'zini aytadi. 5-8 tagacha bo'lgan so'zlar o'yin davomida nomlanishi lozim.

Ushbu o'yinda bola harakat va so'zni bir-biri bilan uyg'unlashtirishni ham o'rganadi. O'yinni butun ta'lim jarayonida takroran o'ynab turish tavsiya etiladi.

Chunki maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning xotirasi sust, diqqati tarqoq bo'ladi. Qayta-qayta takrorlanishi natijasida bolada bu so'zlarning ko'plik va birlikdagi shakllari yanada mustahkamlanib boradi.

Ushbu so'zlardan keyinchalik ham o'z hayotida foydalanish ehtiyojini paydo qiladigan holatlarni yaratish samarali usullardan biri hisoblanadi.

So'z yasashda kelishik qo'shimchalaridan to'g'ri foydalanish, "Kiyimlar" mavzusiga doir leksik zahirani boyitish maqsadida **"Bu kimning kiyimlari, o'ylab top?!"** o'yinini tavsiya etamiz.

Didaktik materiallar ro'mol o'ragan buvi, xalat kiygan ona, po'stindagi qizaloq, bosh kiyimli amaki va shunga o'xshash boshqa odamlarning tasviri tushirilgan rasmlar. Shuningdek, ushbu kiyimlarning alohida tasvirlangan rasmlari: *ro'mol, xalat, bosh kiyim, po'stin* va boshqa.

O'yinning borishi: bolalar rasmlarni ko'rib chiqadilar. Defektolog predmetlardan birini nomlaydi. Bolalar esa ushbu kiyim kimga tegishli ekanligini aytadilar.

- Bu buvijonimning ro'moli, bu onamning xalati, bu qizaloqning po'stini va h.k.

Ushbu o'yinda bolaning nafaqat lug'at boyligini oshirish, grammatik jihatdan kelishik qo'shimchalardan to'g'ri foydalanish malakalariga ega bo'lish, balki mantiqiy fikrlash, tafakkur boyligi ham bir vaqtning o'zida rivojlanishini guvohi bo'lish mumkin. Ushbu o'yinda "Kiyimlar" mavzusi tanlangan, huddi shu tarzda

boshqa mavzular bilan tanishtirishda ham shu o'yindan foydalanish mumkin.

Misol uchun "Hayvonlar" mavzusini tanlab olaylik. O'yin "**Bu kimning dumi, o'ylab top?!**" deb nomlanadi.

O'yinning borishi: bir qatorda hayvonlarning dumsiz holda tasvirlangan rasmlari, ikkinchisida dumlarning alohida aks etgan rasmlar qo'yiladi. Defektolog biron-bir hayvonga tegishli dumni ko'rsatadi. Bola dum qaysi hayvonga tegishligini aniqlab olganidan so'ng, hayvonni nomlaydi ("Bu tulkingning dumi").

Ushbu o'yinda "Hayvonlar" mavzusiga doir so'zlar bolaning leksikonini boyitish bilan birga, mantiqiy fikrlash rivojlanadi, tafakkurning muntazam charxlanib borishi natijasida, oldingi o'yinga nisbatan topshiriqni bajarish tezligini oshganligini kuzatish mumkin. Shu kabi yana bir nechta o'yinlarni keltirishimiz mumkin.

"Bu narsalar kimga kerak?" o'yini

Maqsad bolalarning grammatik jihatdan gapni to'g'ri tuza olish hamda lug'at boyligini oshirish, mantiqiy tafakkurini charhlash.

Rasmlar: tayoqchasiz o'qituvchi, cho'tkasiz bo'yoqchi, qaychisiz sartarosh, miltiqsiz ovchi, qarmoqsiz baliqchi, tarozisiz sotuvchi va h.k., shuningdek, ularga yetishmaydigan predmetlar rasmi alohida kartochkalarda taqdim etiladi.

O'yinning borishi: Bolalar bu rasmlarni ko'rib chiqib navbat bilan kimga nima kerakligini aytib chiqadilar. (o'qituvchiga tayoqcha kerak, qarmoq baliqchiga kerak).

"Mehmonlar" o'yini

Maqsad:

Jihoz: Turli xil noz-ne'matlar (mulyaj) bilan to'lgan dasturxon: olma, baliq, sabzi, suyak, qo'ziqorin va h.k. (Har bir MMTM da shunday burchak bo'lishi shart).

Defektolog ko'rsatmasi: "Ayiqqolvon mehmonlarni kutyapti. Likobchalarda u o'zining o'rtoqlariga atab noz-ne'matlar qo'yibdi. Nima deb o'ylaysiz bu noz-ne'matlar qaysi mehmonlarga atalgan? Sabzini kimga beramiz? (sabzini quyonga beramiz) va h.k."

"Jonivorlarga o'z uylarini topishga yordam ber" o'yini

Ikki qator rasmlar taklif qilinadi: bittasida hayvonlar, ikkinchisida ularning inlari tasvirlangan. Defektolog bolalarga hayvonlarga o'z uylarini topishga ko'mak berishlarini, kim qayerda yashashini eslashni taklif qiladi. Savollarga javob berib turib, ular hayvonlar rasmini o'z uychalari oldiga qo'yib chiqadilar.

"Kichkina va katta" o'yini

O'yin maqsadi: so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida otlarni kichraytirib-erkalatib nomlay olish malakalarini bolalarda shakllantirish.

Jihozlar: katta va kichik predmetlar yoki bo'lmasa ularni ifodalovchi rasmlar.

O'yinning borishi: qizil doirachalar - katta va kichik. Defektolog ularni nomlashni taklif qiladi: bu katta doira, bu kichik doira. Endi u katta va kichik so'zini ishlatmasdan rasmlarni nomlashni buyuradi.

Bu? (kichik doiraga ko'rsatadi)

Bolaning javobi: doiracha

Bunisichi? (katta doira ko'rsatiladi)

Bolaning javobi: doira.

Defektolog: menga rasmlarni tartiblashtirishga yordam ber. Kichik predmetli rasmlarni doiracha ostiga, katta predmetli rasmlarni doira ostiga berkitgin.

U kichik va katta predmetlar tasvirlangan rasmlarni aralastirilgan holda patnisga solib, bolaning oldiga qo'yadi, hamda bolaning mashqni bajarish usulini kuzatadi. So'ngra oldin katta keyin kichik predmetli rasmlarni nomlashni taklif etadi.

"Kimning ovozi?"

O'yin maqsadi: Hayvonlar va ularning bolalarini ovozi orqali ajratish, ular nomlanishini solishtirishni o'rgatish.

Kerakli jihozlar: sichqon va sichqoncha, o'rdak va o'rdakcha, baqa va baqacha, sigir va buzoqcha, mushuk va mushukcha.

O'yinning borishi: bolaning uyiga hayvonlar mehmonga kelishyapti. Bola ularni ovozdin qaysi hayvon ekanligini aniqlashi lozim.

Miyov-miyov. Kim miyovlayapti? (mushuk). Kim mayin ovozda miyovlayapti? (mushukcha). Ona mushukning bolasi bor ekan. U qanday miyovlarkan? (mayinroq ovozda miyov-miyov deydi). Mo'-o'-o'-o' – kim bunday mo'o'o'laydi? (Sigir) Uning bolasi qanday nomlanadi? (buzoqcha). U qanday ovoz chiqaradi? (mayin, ingichka). Endi yana bir marta diqqat bilan eshit, bu kimning ovozi sigirni yoki buzoqchani?

Vaq-vaq – bu kimning dag'al ovozi? (qurbaqaning). Bu ingichka ovozda kim vaqillayapti? (baqacha). Qurbaqa katta va uning ovozi dag'al, qurbaqa bolasi esa mayin ovozda qurillaydi. Qurbaqaning bolasi kim ekan?

Shu kabi qolgan o'yinchoqlar ham o'ynaladi. Bolaga o'yinchoqni to'g'ri nomlab chaqirish kerakligini, keyin u bilan o'ynashi mumkinligini taklif qilsak ham bo'ladi ("Baqacha mening oldimga kel?, "O'rdakcha men bilan o'yna!").

Bunday o'yinda bolalarning nafaqat lug'at boyligi oshadi, kichraytirish-erkalatish qo'shimchalari yordamida yangi so'zlar yasay olishadi, balki ularning fonetik-fonematik idroki ham rivojlanib boradi. Zero fonetik-fonematik idrok rivojlanmay turib bola nutqining grammatik tomonini rivojlantirishning imkoniyati yo'qoladi. Ushbu o'yin bolalarga hayvonlar va ularning bolalari ovozlarini ajrata bilishga o'rganadilar (Sigir baland ovozda mo'-o'-o'laydi, buzoqcha esa ingichka, mayin ovozda; qurbaqa qo'pol vaqillaydi, baqacha esa ingichka qurillaydi), ularning ot va fe'l so'z turkumlariga mansub bo'lgan lug'at boyligi faollashadi.

Shunga o'xshash o'yinlarni turli xil hayvonlar bilan ham o'tkazish mumkin. Masalan, bolaga rasm ko'rsatiladi. Unda qushning rasmi tasvirlangan. – Bu qush. U o'rmonda yashaydi. Uning qo'shig'i ku-ku, ku-ku. Bu qaysi qush qani top-chi? (Ku..... - deb bolani mustaqil ravishda to'g'ri javobni aytishga chorlanadi). – Bu nima ekan? (Xo'roz). Erkalatib biz uni nima deymiz? (xo'rozcha). Xo'rozcham qanday qichqiradi? (Ku-ka-re-ku-ku).

Asosiy maqsad bolani o'rab olgan atrof-muhitdagi bilim va tasavvurlar asosida lug'at boyligini oshirishga, gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish malakalarini hosil qilishga qaratiladi. Turli xil so'z turkumlarining bola nutqida faollashishi, nafaqat otlar, balki fe'l, sifat, ravishlarning nutqda ko'payishi yuzaga keladi.

Bolani har bir predmet xususiyatlari va harakatlari o'z nomlariga ega ekanligi bilan tanishtirish lozim. Buning uchun bolalarga predmetlarni muhim tomonlaridan ajratishga o'rgatish, ularni to'g'ri nomlash, xarakterli belgi va sifatlarini aniqlash (qanday?), shuningdek, o'yinchoqlar, hayvonlar xatti-harakatlari hamda ularning holatlari bilan bog'liq faoliyatni bir-biridan ajrata olishga o'rgatish muhimdir. Masalan, insonning yuz berishi mumkin bo'lgan faoliyatlari (nima qilyapti?, undan qanday foydalanish mumkin?). Bunday ta'limot "**Bu qanday predmet?**", "**Qandayligini ayt!**", "**Kim nima qila oladi?**" kabi o'yinlarda amalga oshadi.

"O'yinchoqni tanib ol!" o'yini

Maqsad: predmetli so'zlarni va sifatlarini bola lug'atida ko'paytirish, predmetni uning belgilari va xususiyatlariga qarab tanib olish malakalarini shakllantirish.

O'yinning mazmuni: Defektolog bolaga 3-4 ta o'yinchoqni ko'rsatadi va ularni nomlaydi. Avvalambor, ularni to'g'ri nomlashni o'rgatish kerak. "Bu ...(quyon, tulki, o'rdakcha)". Har bir o'yinchoq to'g'risida bolaga ma'lumot beriladi. Uning tashqi qiyofasiga "bu yumshoq o'yinchoq, u kulrang. Dumi kalta, quloqlari esa uzun. U sabzini yaxshi ko'radi. U tez va epchil sakraydi". Shu singari qolgan o'yinchoqlarni ham tasvirlab beriladi. So'ng bola ularni nomlaydi. Bolaga o'yinchoqlardan birini tasvirlab berish taklif qilinadi.

"Qandayligini ayt!" o'yini

O'yin maqsadi: predmetni belgi-xususiyatlarini ajratib, ularni nomlay olishga o'rgatish.

O'yinning mazmuni: Qutidan predmetlar olinadi va nomlanadi. ("Bu - nok"), bola esa uning sifatlarini aytadi. ("U sariq,

yumshoq va shirin". "Bu pomidor. U qizil, dumaloq, pishgan, sersuv, shirali". "Bodring cho'zinchoq, yashil, yeganda qarsillaydi"). Mazkur o'yinlarni nafaqat mashg'ulot davomida bir marta balki sayr vaqtida, hatto uyda ota-onasi va oila a'zolari bilan "o'ynash" tavsiya qilinadi. Bir bolaga ham defektolog, ham tarbiyachi, ham oila a'zolari bir vaqtning o'zida maqsadga yo'naltirilgan munosabatda bo'lishsa, bunday bolalarning muloqatga bo'lgan ehtiyoji paydo bo'ladi, nutqining rivojlanishiga turtki bo'lishiga aminmiz. O'yin faoliyati davomida bolani zeriktirib qo'ymaslik juda muhim. Buning kerakli jihozlarni tanlashda rangbarang, diqqatni o'ziga tortuvchi rasm, plakat, didaktik o'yinchoq va materiallardan foydalanish kerak bo'ladi. O'yinlarni tanlashda va guruhdagi sog'lom ruhiy holatni ushlab turishga erishish uchun har bir bolaning individualligini hisobga olish defektologning asosiy vazifasidir.

“Ertak bilan o‘yin” texnologiyasi (Ertakterapiya usullarini qo‘llash bilan)

Ertakterapiya – bu ertakdagi voqea-hodisalar va real hayotdagi hulq-atvor o‘rtasida aloqa hosil qilish jarayonidir. Bu ertak mazmunini haqiqiy hayotga bog‘lash jarayoni.

Ertakterapiya – bu faollik, mustaqillik, ijod, bolani o‘z hissiy holatini nazorat qilishga yo‘naltirilgan integrativ faoliyat bo‘lib, unda tasavvur etilayotgan vaziyatdagi xatti-harakatlar real hayotdagi muloqot bilan bog‘lanadi. Mazkur o‘yin texnologiyasi nutqni o‘stirish mashg‘ulotlari davomida o‘tkazildi.

Ish bosqichlari

1 bosqich. Affektiv holatlarni tushunish va ularni o‘zaro farqlash.

Maqsad: ertak syujetini tilning ifoda vositalari yordamida tushunish, musiqiy kompozitsiyani idrok etish, ertak qahramonlarining replikalarini, mimika va xatti-harakatlarini intonatsiya va ifoda bilan takrorlash, ularning hissiy holatlarni ritmlashtirish.

O‘yin usullari: so‘zli rejissyorlik o‘yini, psixogimnastik etyudlar, ritmik mashqlar.

2 bosqich. Hissiy-affektiv vaziyatlarni ta‘riflash va muhokama qilish.

Maqsad: yoyiq so‘zli ta‘riflar tuzish yordamida o‘z xulq-atvor reaksiyalarini boshqarish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, musiqiy kompozitsiyaning tembri, dinamikasi, ohangini idrok etish davomida ma‘lum his-tuyg‘ularga ega bo‘lish, ifodali xatti-harakatlarni bajarish.

O‘yin usullari: ta‘riflash, pantomimik, ritmik va musiqiy topishmoqlar, relaksatsion mashqlar.

3 bosqich. O‘rindosh ehtiyojni ifodalash.

Maqsad: ertak asosidagi fantaziya-o‘yinlarda hissiy muammolar va dolzarb kechinma-ehtiyojlarni ifoda etish asosida hissiy xulq-atvor va ta‘sirchan jummalarni muvozanatga keltirish.

O‘yin usullari: musiqa asosida fantaziya qilish, so‘zli tasvirlar, pantomimik mashqlar yordamida uyatchanlik, tortinchoqlik, jamoa oldidagi qo‘rquvlarni bartaraf etish.

O'yin texnologiyasida foydalanilgan metod va usullar

So'zli rejissyorlik o'yini bolalarda nutqni rivojlantirish, musiqa asosida ertak qahramonlarining xatti-harakatlari va hissiy holatini tushunish, uni to'liq tasvirlab berish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratiladi.

Yo'naltiruvchi savollar usuli ertak qahramonlarining ovozlari o'xshatib ifoda etishga, aniqlashtiruvchi savollar usuli esa jumalarning mazmuniy tomoni, uning mazmunini turli tomondan tahlil etish, ahamiyatini aniqlashtirishga qaratiladi.

Psixogimnastika usuli - mimika va xatti-harakatlari yanada ta'sirchan ko'rsatib berish, badan mushaklaridagi gipertonuslarni bartaraf etish va mushaklarni tinchlantirish uchun katta ahamiyatga ega.

Hissiy obrazlarni temp va ritmda aks ettirish, ertak qahramonlarining hissiyotlari, xatti-harakatlarini ritmlashtirish mashqi bola organizmida kechayotgan ritmik jarayonlarni me'yoriy kechishga ta'sir etadi.

Ta'riflash metodi - bolalarga ertakning mazmun-mohiyatini chuqurroq tushunish, unga mos hissiy javob reaksiyasini chaqirish, boshqa ertaklar bilan o'xshash va farqli tomonlarini o'zaro bog'langan jumla va gaplar vositasida taqqoslash, nutqda obrazli jumla va ertakdagi qaytariluvchi "naqorat"larni faol qo'llashga zamin yaratadi.

Hamkorlikdagi so'zli improvizatsiyalar metodi - defektolog bolalarga ertakni ma'lum epizodini sahnalashtirishni taklif etadi va bolalarga bosh rollarni taqsimlab beradi. Sahnalashtirish davomida bolalar ertakni syujeti asosida ertakka yangi elementlarni kiritishadi, ertak qahramonlarini o'zaro muloqoti asosida bolalar ertak mazmun-mohiyatini chuqur anglashadi.

Musiqiy kompozitsiya asosida fantaziya qilish metodi - bolalar ertak asosidagi musiqani bir qismini tinglagandan so'ng, musiqiy obrazning xarakteri, dinamikasi, ohangi va ritmidan kelib chiqqan tarzda ertak qanday davom etishi mumkinligi haqida mulohazalar yuritishadi, o'z mulohazalarini sahnalashtirishadi.

Ertakterapiya o'yin texnologiyasi asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar namunasi:

Olako'z laqabli sigir

Uzoq zamonlarda bir qishloqda chol va kampir yashagan ekan. Ularning Olako'z laqabli sigiri ham bor ekan. Olako'z har kuni ko'p sut berib, "Mu-mu!" deya mo'rar ekan.

Kunlardan bir kuni Olako'z chuqur uyquga ketibdi. Uxlab-uxlab, hech uyg'onmasmush. Chol va kampir uni uyg'atolmay rosa yig'lashibdi.

Kampir sichqonni chaqirib: "Sichqoncha, Olako'zni uyg'otib ber, evaziga senga sut beraman" – debdi. Sichqon "Pi, pi, pi uyg'on! Pi, pi, pi o'rningdan tur!" deya chiyillabdi. Olako'z uyg'onmabdi.

Kampir mushukni chaqirib: "Mushukcha, Olako'zni uyg'otib ber, evaziga senga sut beraman" – debdi. Mushuk "Myau, myau, myau uyg'on! Myau, myau, myau o'rningdan tur!" deya miyovlabdi. Olako'z uyg'onmabdi.

Olako'zni osmondagi bulutlar ko'rib qolibdi. Olako'zdan jahli chiqib lunjlarini to'ldirib puf-puf deya puflabdi-yu, portlab ketibdi.

Yomg'ir yog'a boshlabdi, o't-o'lanlarga, daraxt-u uylarning tomlariga yog'ibdi. Olako'z uyg'onmabdi.

Qattiq momaqaldiroq chaqnab, yomg'ir yana kuchayibdi.

Olako'z uyg'onib ketib, "Mu-mu!" deya mo'rabdi. Chol va kampir xursand bo'lib, hammani chaqirib, sut bilan mehmon qilishibdi.

1 bosqich. Affektiv holatlarni tushunish va ularni o'zaro farqlash Maqsad: 1. So'zli rejissyorlik o'yini: . Musiqaning xususiyatlari asosida qahramonlarning xatti-harakatlari va hissiy holatini sezish ko'nikmalarini shakllantirish; . Bolani hayvonlar nomini erkalash-kichraytirish shakllari bilan tanishtirish (sichqoncha, mushukcha); . Fe'lning buyruq mayli bilan tanishtirish (uyg'on, tur); . Hayvonlar ovozi turli intonatsiya (xursandchilik, iltimos) va balandlik (baland, past, shivirlab) bilan ifodali imitatsiyalashga o'rgatish; 2. Psixogimnastika: . Tabiat hodisalarini ritmitizatsiya asosida tasvirlab berishga o'rgatish (yomg'ir, momaqaldiroq); . Hissiy holatlarni mimika va xatti-harakatlarda ta'sirchanlik bilan ifoda etishga o'rgatish (g'am, iltimos, xursandchilik); . Badan mushaklarini ixtiyoriy tarzda kuchlantirish va bo'shashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish (bulut - yomg'ir).

Mashg'ulotning borishi Defektolog: (bolalarga "Olako'z laqabli sigir" ertagini 1 va 2 gaplarini o'qib beradi, so'ng) "Bolalar, Olako'z xushchaqchaq sigir-mi yoki g'amgin sigir-mi? Hozir men boshlayman, sizlar esa davom ettirasizlar. Olako'zning ovozi g'amgin emas, uning ovozi ..." Bolalar: Xushchaqchaq Defektolog: Ovozi past emas, ... Bolalar: Baland Defektolog: Olako'zga o'xshab baland, xushchaqchaq ovozda uzoq mo'rab ko'ring-chi: "Mu-mu-mu!" Bolalar defektolog topshirig'ini bajarishadi. Defektolog: (Ertakning 3-5 gaplarni o'qib beradi) Chol va kampir qanday yig'lashini qanday ko'rsatib berish mumkin? Chol va kampirning chehrasi xushchaqchaq emas, ... Bolalar: g'amgin Defektolog: chol va kampir qanday yig'lashayotganini ko'rsatib bering. "G'am" pantomimik etyudi Bolalar cho! va kampirning yig'lashini ko'rsatib berishadi: boshlarini chayqab, ko'z yoshlarini artishadi, qoshlari bir-biriga yaqinlashtirilgan. Defektolog: (ertakning 6-11 gaplarni o'qiydi) Kampir Olako'z uyg'onishini juda qattiq hohlaganmi? U mushuk va sichqondan Olako'zni uyg'otib berishni qanday so'ragan? Bolalar: Iltimos qilib, erkalab chaqirib so'ragan. Defektolog: Kimning ovozi pastroq, mushuknikimi yoki sichqonnikimi? Bolalar: Sichqonnikimi Defektolog: To'g'ri. Demak sichqon Olako'zni past ovoz bilan emas, shivirlab uyg'otishga uringan. Defektolog: Olako'zni sichqon va mushukka o'xshab uyg'otib ko'ring. Bolalar topshiriqni bajarishadi.

Defektolog: (ertakning 12-15 gaplarni o'qiydi). Endi musiqani diqqat bilan tinglasangiz ertakdagi Olako'z nima eshitganini eslaysizlar. Bolalar M.I.Glinkaning «Chernomor marshi» kompozitsiyasining bir parchasini tinglashadi. Defektolog: Bu qanday musiqa sokinmi yoki qo'rqinchlimi? Balandmi yoki pastmi? Bolalar: Qo'rqinchli va baland. Defektolog: To'g'ri bu musiqa qo'rqinchli va baland. Bu yomg'ir yog'ish ovozi yoki momaqaldiroq chaqnashimi? Bolalar: Momaqaldiroq chaqnashi. Defektolog: (ertakning 16-17 gaplarni o'qiydi). Qo'lingizni stol ustiga qo'yib, barmoqlaringiz bilan stolni tiqillatib, avval yomg'ir yog'ishini, so'ng momaqaldiroq gumburlab yomg'ir yog'ishini tasvirlab bering. "Tabiat xodisalari" ritmitizatsiya mashqlari Bolalar qo'lini stol ustiga qo'yib, defektolog bilan birgalikda yomg'ir tomchilarini ritmini aks ettirishadi: barmoqlarni yengil va

sekin harakati – kichik yomg'ir, qattiq va tez-tez tuqillatish – momaqaldiraq chaqnashi. Defektolog: (ertakning 18-19 gaplarni o'qiydi). Keling musiqa asosida bulut lunjlarini ishirib puflab-puflab, so'ng portlab ketib, yomg'ir yog'ishini boshlaganini ko'rsatib beramiz.

Badan mushaklarini ixtiyoriy tarzda kuchlantirish va bo'shashtirish mashqi musiqa asosida bolalar aylana bo'lib turib, qo'l, oyoq mushaklarini kuchlantirishadi, lunjlarini ishirishadi. "Barmoqlar" musiqasi ostida lunjlaridagi havoni puflab chiqarishadi, badan mushaklarini bo'shashtirishadi, joyida turib "yomg'ir tomchilari" kabi sakrashadi.

2 bosqich. Hissiy-affektiv vaziyatlarni ta'riflash va muhokama qilish Maqsad: 1. Psixogimnastika:

Ertak qahramonlari va ularning affektiv holatini ta'sirchan ifoda asosida aniqlashga o'rgatish (g'am, taklif, uyqu); . Tabiat hodisalarini ritmitizatsiya asosida tasvirlab berishga o'rgatish (momaqaldiraq chaqnashi, yomg'ir); . Badan mushaklarini ixtiyoriy tarzda kuchlantirish va bo'shashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish (bulut - yomg'ir). 2. Muhokama qilish: . Bolalarga ertakning tub mazmun-mohiyatini tushuntirish (do'stlar doim yordamga kelishadi); . Bolalarni egallagan multisensor tajriba asosida hamkorlikda yoyiq ta'riflar tuzishga o'rgatish; . Bolalar nutqida hayvonlar nomini erkalash-kichraytirish shakllarini (sichqon – sichqoncha, mushuk – mushukcha) va fe'lning buyruq-istak maylini (uyg'on, tur) qo'llashni faollashtirish; . Oddiy jummalarni to'liq gap ohangi bilan so'zlashga o'rgatish. Defektolog (bolalarga avvalga darsda so'zlab berilgan "Olako'z laqabli sigir" ertagini hikoya qilib, so'ng bolalarga murojaat qiladi). Demak, do'stlar doimo bir-biriga qiyinchiliklarni yengishga ko'maklashishadi. Do'sting qancha ko'p bo'lsa, shunchalik yaxshi ekan. Eslang, kampir kimlarni yordamga chaqirgan edi? Bolalar: Kampir mushuk, sichqon, bulutni yordamga chaqirgan. Defektolog. Kampirga o'xshab: "Sichqoncha (mushukcha, bulutcha) Olako'zni uyg'otib ber" va mushukga o'xshab: "Myau, myau, myau uyg'on! Myau, myau, myau o'rningdan tur!" deya javob berib ko'ring.

Bolalar defektolog topshirig'ini bajarishadi. "Xatti-harakatidan kimligini top!" o'yini dastlab bolalar aylana shaklida turib, defektolog bilan birgalikda turli ertak qahramonlarini xatti-harakati, mimikasi va holatini tasvirlashadi. So'ng bolalar stullarga o'tirishadi, defektolog har bir bolani chaqirib ma'lum ertak qahramoni va uning ma'lum vaziyatdagi holatini ko'rsatib berishni taklif etadi (boshqa bolalarga aytmagan holda). Tomoshabinlar ertak qahramonlarini topishadi va uni turli vaziyatlarda ta'riflab berishadi. Defektolog bolalarga yo'naltiruvchi savollar orqali ta'riflar tuzishga yordam beradi. Defektolog. Azizaga diqqat bilan qarang. U qaysi ertak qahramonini ko'rsatib beryapti? Bolalar: Aziza kampirni ko'rsatib beryapti. Defektolog: To'g'ri, buni qanday aniqladingiz? Azizaning ko'zlari g'amgin-mi yoki xushchaqchaqmi?

Bolalar: Azizaning ko'zlari xushchaqchaq. Defektolog. Azizaning qo'llari ko'ksidami yoki pastga tushirilganmi? Bolalar: Azizaning qo'llari ko'ksida. Defektolog. Aziza tez yuryaptimi yoki sekinmi? Bolalar: Aziza sekin yuryapti. Defektolog. Aziza qaysi vaziyatdagi kampirni ko'rsatyapti: kampir yig'lab, hayvonlardan Olako'zni uyg'otishni so'rayaptimi yoki xursand bo'lib, hammani sut bilan mehmon qilyaptimi? Bolalar: Aziza hammani sut bilan mehmon qilayotgan kampirni ko'rsatyapti. Defektolog: Kampirning qaysi harakatlari sizga uni xushchaqchaq, mehmonga chaqirayotganini tushunishingizga yordam berdi? Bolalar: Kampir xursand, qo'lini ko'ksida, hammani mehmonga chaqiryapti. "Bu nimaning ritmi?" o'yini Dastlab bolalar qo'llarini stolga qo'yib, defektolog bilan birga tabiat hodisalarni ritmlashni esga tushirishadi. So'ng defektolog ertakdagi ma'lum hodisani ritmini tasvirlab berishni istagan taklif etadi. Tinglovchilar uni qaysi hodisaga xosligini aniqlab, uni ritmi dinamikasini ta'riflab berishadi. Bolalar defektolog yordamida ritmik rasmni ta'riflovchi ikki-uchta gap tuzishadi.

Defektolog: Bolalar bu ritm nimaga o'xshaydi? Yomg'ir tomchilariga-mi, momaqaldiraq chaqnashigami? Uni qanday ajrata oldingiz? Kamola barmoqlari bilan stolga qattiq tuqillattimi yoki sekin-mi? Tez tuqillattimi yoki sekinmi? Bolalar javob

berishadi: Kamola barmoqlari bilan yengil va tez tuqillatdi, demak, bu momaqaldiroq emas, yomg'ir.

"Musiqani tinglab, javobni top!" o'yini Bolalar musiqiy parchalarni tinglab, ularni ertakning qaysi epizodiga oidligini aniqlashadi va muhokama qilishadi: momaqaldiroq chaqnashi, yomg'ir yog'ishi. Bolalar defektolog yordamida musiqiy parchani va ertak epizodi dinamikasi va kayfiyatini tasvirlovchi ikki-uchta gap tuzishadi. Defektolog musiqa qanday kayfiyatga ega: qo'rqinchlimi yoki xushchaqchaqmi? Bu musiqaning maromi tezmi, sekinmi? Og'irmi, yengilmi? Bolalar javob berishadi. Bu musiqa yengil, sho'x va tez, demak bu momaqaldiroq emas, yomg'ir tomchilashidir.

Badan mushaklarini ixtiyoriy tarzda kuchlantirish va bo'shashtirish mashq musiqa asosida bolalar aylana bo'lib turib, qo'l, oyoq mushaklarini kuchlantirishadi, lunjlarini ishirishadi. "Barmoqlar" musiqasi ostida lunjlaridagi havoni puflab chiqarishadi, badan mushaklarini bo'shashtirishadi, joyida turib "yomg'ir tomchilari" kabi sakrashadi.

3 bosqich. O'rindosh ehtiyojni ifodalash

Maqsad: 1. Psixogimnastika: . Bolalarni o'z affektiv holatlarini xatti-harakat, mimika va nutqda to'g'ri ifodalashga o'rgatish (qo'rquv, xafa bo'lish); . Motor xulq-atvor va nutqiy reaksiyalarni dinamik muvozanatini koordinatsiyalash ko'nikmalarini rivojlantirish;

Badan mushaklarini ixtiyoriy tarzda kuchlantirish va bo'shashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish (bulut - yomg'ir). 1. Hamkorlikdagi nutqiy improvizatsiya: Bolalarni ertak qahramonlarini muammoli vaziyatdagi hissiy holatini ta'rifini kengaytiruvchi gaplarni defektolog ketidan davom ettirishga o'rgatish (bolalar Olako'zni uyg'otadi). Jihozlar: Surnaycha, qo'ng'iroqcha. Defektolog (bolalarga avvalgi darsda so'zlab berilgan "Olako'z laqabli sigir" ertagini hikoya qilib, so'ng bolalarga murojaat qiladi). Bolalar eslang, ertakda kampir Olako'z laqabli sigirni uyg'otib berishni kimlardan so'ragan? Bolalar: Kampir sichqonni va mushukni uyg'otib berishni iltimos qilgan .

Defektolog: Tasavvur qiling-ki sichqon va mushuk uyda yo'q ekan, shuning uchun kampir sizdan sigirni uyg'otishni iltimos

qildi. Keling ertakni boshqatdan aytib beramiz, men sigirni kim uyg'otishini galma-galdan aytaman, siz esa uni uyg'otishga harakat qilasiz. Sizga bu ishda surnaycha va qo'ng'iroqcha "Du-du-du uyg'on! Du-du-du o'rningdan tur! Din-din-din uyg'on! Din-din-din o'rningdan tur!" yordam beradi. Bolalar sigirni qo'rqitvormaslik uchun uni qanday ovoz bilan uyg'otamiz? Qo'pol emas, ... Bolalar: mayin, muloyim uyg'otamiz. Defektolog. Hozir biz kampirga Olako'z laqabli sigirni uyg'otishga yordam bergan bolalar haqidagi ertakni aytib beramiz. "Improvizatsiya" o'yini Defektolog muallif so'zlarini o'qiydi va kampir rolini o'ynaydi. Bolalar galma-gal sigirni uyg'otishadi, uni silab, o'z nutqida ertak qahramoni dialogini hissiy ta'sirchanlik bilan ifoda etishadi. Defektolog. Kampir Kamronni chaqirib (har bir bolaga navbatmanavbat murojaat qilib): "Kamronjon, Olako'zni uyg'otib ber. Seni sut bilan mehmon qilaman" – deb iltimos qildi. Kamron surnayni chalib, ashula ayta boshladi: "Du-du-du uyg'on! Du-du-du o'rningdan tur!". Olako'z esa uxlab, uyg'onmayapti.

So'ng defektolog faqat muallif nomidan hikoya qilib, kampir rolini bolalardan biri o'ynaydi. "Improvizatsiya" o'yini davom etadi. Yuqorida keltirilgan namuna o'yinterapiya texnologiyasining dastlabki, nisbatan sodda material asosidagi ish tizimini aks ettirish maqsadida "Sholg'om", "Mushukchanning uyi", "Qo'ziqorin", "Tulkicha-singilcha va bo'ri" ertaklari

“Agar da.....” o‘yin mashqi

Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari davomida hamda tarbiyachi mashg‘ulotlarida qo‘llandi.

Maqsad: bolalarda bog‘langan nutqni, tasavvur, tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish.

Ko‘rsatma: Defektolog quyidagi mavzularda hayol surishni taklif etadi:

“Agar men shifokor bo‘lsam ...”

“Agar hech qachon bahor kelmasa ...”

Bolalar topshiriqlarni qiziqish bilan bajarishadi.

“Predmetni jonlantir” o‘yin mashqi

Guruhli tarzda nutq o‘stirish, savodga o‘rgatish mashg‘ulotlari davomida o‘tkazildi.

Insonlashtirilgan ob‘ektlar nomidan nutqiy jumlar tuzish.

Maqsad: rasmdagi ob‘ektlarga inson hissiyotlari, fikr va xarakterini berish orqali bolalarda empatiyani rivojlantirish, lug‘atni boyitish va leksik-grammatik tomonini rivojlantirish.

Ko‘rsatma: bolalarga o‘zaro muhokama uchun rasmdagi biron predmetni tanlab, uni “xarakteri”, “imkoniyatlari”, “fikr-mulohazalari” haqida so‘zlab berishadi. Masalan, peyzajni kuzatish vaqtida bolalar ma‘lum daraxtni tanlab uni quyidagicha tasvirlashadi: u sekin nafas oladi, muloyim, u hozir uxlayapti.

“Ular nima haqida suhbatlashyapti?” o‘yin mashqi

Guruhli tarzda nutq o‘stirish, savodga o‘rgatish mashg‘ulotlari davomida o‘tkazildi.

Maqsad: rasmdagi ob‘ektlarga inson hissiyotlari, fikr va xarakterini berib, bolalarni o‘sha “shaxs” suhbatlashish nomidan o‘zaro suhbatlashish orqali dialogik nutqni rivojlantirish, lug‘atni boyitish va leksik-grammatik tomonini rivojlantirish.

Ko‘rsatma: Defektolog rasmdagi predmetlarni tanlab, ular nima haqida o‘ylashi yoki suhbatlashishi mumkinligi haqida o‘ylab

ko'rishni taklif etadi. So'ng bolalar o'sha "shaxs" nomidan suhbatlashadilar.

"Hayvonot bog'i" metodikasi

Maqsad: yovvoyi hayvon rasmini quyida berilgan reja asosida tavsiflash orqali ekspressiv lug'at boyligini, bog'langan nutqni shakllanganlik darajasini aniqlash.

Jihoz: turli yovvoyi hayvonlar tasvirlangan predmetli rasmlar.

Ko'rsatma: Tekshiruvchi bolaga rasmga diqqat bilan qarab, quyidagi reja asosida uni tavsiflab berishni taklif etadi:

- A) Tashqi qiyofasi.
- B) Nima bilan oziqlanishi.

"Predmetlarni taqqoslash" metodikasi

Maqsad: kuzatuvchanlik, predmetlarni detallari, qismlari va sifatlarini aniq tasvirlay olish malakalarini tekshirish.

Jihoz: nomi bir, lekin bir-biridan bir necha belgi va detallar bilan farqlanuvchi buyum va o'yinchoqlar. Masalan, ikkita chelak, ikkita ko'ylak, ikkita qoshiq va h.k.

Ko'rsatma: Tekshiriluvchi bolaga bir-biridan ba'zi belgi va detallar bilan farqlanuvchi ikkita predmetlarni ko'rsatib: "Men biri haqida hikoya qilaman, sen esa ikkinchisi haqida so'zlab berasan. Biz navbatma-navbat ular haqida hikoya qilamiz". Masalan, tekshiruvchi: "Meni chelagim katta", bola: "meni chelagim kichkina". Tekshiriluvchi: "Meni chelagim yashil rangda, ushlagichi esa oq rangda", bola: "Meni chelagim qizil rang, ushlagichi sariq rangda" va h.k.

"Topishmoqlar tuzish" metodikasi

Maqsad: bolalarning kuzatuvchanlik, ekspressiv lug'at boyligini, bog'langan nutqni shakllanganlik darajasini aniqlash.

Jihoz: bir necha predmetli rasmlar.

Ko'rsatma: A) Bolaga ma'lum predmet rasmi berilib, quyidagi reja asosida topishmoq matni tuzish taklif etiladi:

- Shakl qanday?
- Rangi qanday?

- Ovozi qanday?
- Ta'mi qanday?
- Hidi qanday?

B) Bolaga ma'lum predmet rasmi berilib, 3 elementlardan iborat topishmoq tuzish taklif etiladi: birinchi tasvirlovchi qism, vositachi ("o'xshashlik") va qarama-qarshi ("farqli") qismlar.

«Yil fasllari» metodikasi

Maqsad: Bolalarda yil fasllari haqidagi bilimlarni, ekspressiv lug'at boyligini, bog'langan nutqni shakllanganlik darajasini aniqlash.

Jihoz: Yil fasllari tasvirlangan rasmlar.

Ko'rsatma: Bolaga rasm ko'rsatiladi va ushbu rasmlarga diqqat bilan qarab, rasmning har bir qismida yilning qaysi fasllari tasvirlanganligi haqida so'raladi. Topshiriqni bajarish uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Ushbu berilgan vaqt mobaynida bola nafaqat yil fasllarini aytib berishi, balki fasllarning belgilarini ko'rsatib bera olishi va ushbu qism aynan mana shu faslga tegishli ekanligini asoslab berishi kerak.

"O'yinchoqni olib berishga yordamlash" metodikasi

Maqsadi: bog'langan nutq, rasmda tasvirlangan vaziyatni butunligicha idrok etish, ko'rgazmali-obrazli tafakkur negizilarini shakllanganlik darajasini aniqlash darajasini tekshirish.

Jihoz: syujetli rasm – xonada bola, qo'lida kalit ushlab turibdi, uni to'g'risida devordagi mixda (bola uchun yuqori) paketda o'yinchoq osilgan. Xonani burchagida katta va kichik stul turibdi.

Ko'rsatma: tekshiruvchi bolaga rasmni ko'rsatib: "Bola o'yinchog'ini o'ynamoqchi, lekin uni olishga bo'yi yetmayapti. Bola o'yinchog'ini qanday qilib olishi mumkin?" - deydi. Bola topshiriqni bajarishga qiynalsa, yo'naltiruvchi savollar yoki o'xshash vaziyatni eslatish usulidan foydalaniladi.

“Kesma rasmlar” metodikasi

Maqsadi: og‘zaki bog‘langan nutq rivojlanganlik darajasini, ob‘ektlar va vaziyat sabab-oqibat aloqa va munosabatlarini aniqlash xususiyatlarini, tafakkur va nutq rivojlanish darajalarini o‘zaro mosligini tekshirish.

Jihoz: syujetli ketma-ketlikga ega beshta rasm.

Ko‘rsatma: Tekshiruvchi bolaga syujetli rasmlar noto‘g‘ri ketma-ketlikda berilib: “Rasmlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtir va hikoya tuzib ber” – deydi. Agar bola qiyinchiliklarga duch kelsa, rasmlar asosida suhbat olib boriladi.

“Syujetli rasmlar” metodikasi

Maqsadi: og‘zaki bog‘langan nutq rivojlanganlik darajasini, ob‘ektlar va vaziyat sabab-oqibat, fāzo-vaqt aloqa va munosabatlarini aniqlash xususiyatlari, fikrlash, mushohada qilish, xulosalash va mulohazalarni asoslash, yashirin mazmunga ega syujetlarni tahlil etishni rivojlanish darajasini tekshirish.

Jihoz: topshiriqni olti varianti uchun rasmlar:

- A) yaqqol mazmunli syujetli rasm.
- B) yashirin mazmunli syujetli rasm.
- V) yaqqol mazmunli syujetli rasmlar seriyasi.
- G) yashirin mazmunli syujetli rasmlar seriyasi.
- D) xatti-harakatlar yakunlanmagan syujetli rasmlar seriyasi.

“Geometrik o‘yinlar” metodikasi

Maqsadi: mayda qo‘l motorikasini, konstruksiyalash ko‘nikmalarini tekshirish, fazoda mo‘ljal olish ko‘nikmasini tekshirish.

Jihoz: 6 ta sanoq tayoqchalari.

Ko‘rsatma: Tekshiruvchi bolaga 6ta sanoqli tayoqcha hamda xuddi shunday 6 ta tayoqchadan yasalgan uycha namuna sifatida ko‘rsatadi. So‘ng namunadagi kabi uycha yasab berishni taklif etadi. Agar bola qiyinchiliklarga duch kelsa, unga yo‘naltiruvchi savol va ko‘rsatmalar beriladi.

"Ko'p, oz, barobar" o'yin metodikasi

Maqsadi: og'zaki bog'langan nutq rivojlanganlik darajasini, matematik tasavvurlarni rivojlanish darajasini, tafakkur va nutq rivojlanish darajalarini o'zaro mosligini tekshirish.

Jihoz: sanoq cho'plari, geometrik shakllar, turli miqdordagi predmetlar chizilgan kartochkalar va h.k.

Ko'rsatma: Tekshiruvchi bolaga bir raqamni ko'rsatib, "ko'p", "oz", "barobar" so'zlarini aytganda, bola shu so'zlarga mos miqdordagi narsalarni ko'rsatishlari kerak. Agar bola qiyinchiliklarga duch kelsa, unga yo'naltiruvchi savol va ko'rsatmalar beriladi.

"Rasmlı domino" o'yin metodikasi

Maqsadi: og'zaki bog'langan nutq rivojlanganlik darajasini, ko'rish idrokini, diqqatini rivojlanish darajasini, tafakkur va nutq rivojlanish darajalarini o'zaro mosligini tekshirish.

Jihoz: "rasmlı domino" o'yini uchun to'plami.

Ko'rsatma: Tekshiruvchi o'ziga va bolaga 5tdan domino beradi va o'yin qoidalarini tushuntiradi: "men bir dominoimni stolga qo'yaman, sen esa bu dominoning ikkala chetidagi rasmni diqqat bilan qarab, so'ng qo'lingdagi dominolardan mos rasmligini topib, uni meni dominoimni oldiga qo'yasan". Agar bola qiyinchiliklarga duch kelsa, unga yo'naltiruvchi savol va ko'rsatmalar beriladi.

"Singan piyola" metodikasi

Maqsadi: bolalarni og'zaki bog'langan nutq rivojlanganlik darajasini, o'zaro sabab-oqibat aloqalari bilan bog'langan hodisalarni tushunish xususiyatlarini tekshirish.

Jihoz: syujetli rasm: "xonaning o'rtasidagi dumaloq stolda idishlar turibdi. Stolning oldida bola turibdi, u stolning tagidagi singan piyolagi qarayapti. Polda singan piyolaning oldida koptok bor" (sabab – bola xonada koptok o'ynagan; birinchi oqibat – koptok piyolaga tegib ketdi; ikkinchi oqibat – piyola sindi).

Ko'rsatma: Tekshiruvchi bolaga rasmni diqqat bilan ko'rib chiqib, unda nima tasvirlanganini hikoya qilib berish taklif etiladi.

Agar bola qiyinchiliklarga duch kelsa, "Stolda nima bor? Polda nima yotibdi? Bola koptok bilan nima qilayotgan edi? Koptok qayerga tushdi? Piyolaga nima bo'ldi?" kabi yo'naltiruvchi savol va ko'rsatmalar orqali syujetni idrok etish va tushunish faollashtiriladi.

"Jonli surat" o'yin metodikasi (guruhli tarzda o'tkaziladi).

Maqsad: og'zaki bog'langan nutq rivojlanganlik darajasini, ko'rish idrokini, diqqatini rivojlanish darajasini, kuzatuvchanlik, xotirasini rivojlanish darajalarini tekshirish.

Jihoz: qo'g'irchoq va o'yinchoqlar.

Ko'rsatma: Bolalarga stoldagi biron-bir qo'g'irchoq va o'yinchoqni tanlab, uni diqqat bilan ko'rib chiqish taklif etiladi. So'ng ko'zni yumgan holda u tanlagan o'yinchog'ini guruhdagi bolalarga shunday tasvirlab borishi kerakki, u tasvirlagan bolani qolganlar anglab olsin.

"Juft so'zlar" o'yin metodikasi

Maqsad: og'zaki bog'langan nutq rivojlanganlik darajasini, ko'rish idrokini, diqqatini rivojlanish darajasini, kuzatuvchanlik, xotirasini rivojlanish darajalarini tekshirish.

Jihoz: predmetli rasmlar to'plami.

Ko'rsatma: Bolaga bir necha so'zlarni eslab qolishni taklif etiladi, (5-6 tadan boshlash mumkin) har birini boshqa so'z bilan juft holda beriladi.

Dastlab so'zlar predmetli rasmlar bilan mustahkamlangan tarzda va ma'nosi jihatdan o'zaro bog'liq bo'ladi. Masalan, siz bu kabi juftlarni aytasiz: mushuk-sut, mashina-g'ildirak, stol-dasturxon va shu kabilar va boladan har bir juftning ikkinchi so'zini eslab qolish so'raladi. Keyin juftning birinchi so'zini aytasiz bola esa ikkinchi so'zni eslashi va aytishi lozim. Topshiriqni sekin-asta rasmlar bilan mustahkamlamasdan, juft so'zlar miqdorini ko'paytirish va mazmunan bog'lanmagan juft so'zlarni tanlab berish bilan qiyinlashtirib boriladi.

"Bekinmachoq" o'yin metodikasi

Maqsad: ko'rish idrokini, diqqatini, kuzatuvchanlik, xotirasini rivojlanish darajalarini, ko'makchilarni tushunish darajasi, nutqning grammatik tomonini shakllanish darajasini tekshirish.

Jihoz: kichik hamjmdagi o'yinchoqlar to'plami.

Ko'rsatma: Tekshiruvchi oldindan tayyorlab qo'yilgan o'yinchoqlarni bolaga ko'rsatmagan holda turli joylarga yashirib qo'yadi.

So'ng bolani chaqirib shunday deydi: "Sehrgar bu xonaga bir necha kichik sovg'alarni sehrlab yashirib qo'ygan va mana bu maktubni tashlab ketgan. U bizga sehrlangan sovg'alarni topishda yordam beradi. Biz birgalikda ularni izlab topishimiz kerak, men ularni qayerdaligini maktubdan o'qib beraman, sen esa ularni izlab topasan. Xo'sh, birinchi sehrlangan sovg'a stolning o'ng tepa tortmasida, ... ". Agar bola qiyinchiliklarga duch kelsa, unga yo'naltiruvchi savol va ko'rsatmalar beriladi.

Uchta narsaning nomini ayt o'yini

O'yinning maqsadi: narsalarni tashqi ko'rinishi va xususiyatiga qarab turlarga ajratish, guruhlash, hozirjavoblikka o'rgatish.

O'yin qoidasi: o'qituvchi ma'lum bir so'zni aytib bolalardan birontasiga qo'lidagi koptokni irg'itadi. Koptokni ilib olgan bola shu so'zga mos keladigan uchta so'zni aytib javob qiladi. O'yinning sharti shuki, bola tezlik bilan javob berishi lozim.

O'yinni o'tkazish: o'qituvchi qo'lidagi koptokni bir bolaga irg'itib daraxt so'zini aytadi. O'quvchi esa terak, tol, qayrag'och, archa, qayin kabi so'zlar bilan javob beradi.

Gullar – atirgul, chinnigul, lola, rayhom, karnaygul, gulbeor

Sabzavotlar – kartoshka, karam, sabzi, ravok, sholg'om, turp

Bolalar bu o'yinning mazmunini yaxshi o'zlashtirib olganlaridan keyin o'yin variantini boshqacha, ya'ni aksincha qilib ham o'tkazish mumkin. Masalan, bir nechta so'zni aytib umumlashtirish.

Olma, o'rik, shaftoli – mevalar

Gilos, olxo'ri olcha – mevalar
Stul, divan, shkaf, kreslo, karavot – uy jihozlari
Kitob, daftar, qalam, ruchka – o'quv qurollari
Palto, ko'ylak, qalpoq – ustki kiyimlar

Shu tariqa o'yinni davom ettirish mumkin, ammo o'qituvchi turli narsalar nomining aytilishiga e'tibor berishi lozim.

Rangiga qarab top o'yini

O'yinning maqsadi: o'quvchilarning so'z boyligini aktivlashtirish

O'yin uchun jihozlar: olti xil asosiy rangga bo'ylagan kartochkalar. Uning o'lchovi: bo'yi 5sm, eni 3sm bo'lishi mumkin. Bu kartochkalarga mos rangda mayda doirachalar.

O'yinni o'tkazish: yuqorida eslatib o'tilgan materiallarni konvertga yoki qutichaga solib har bir bolaning oldiga qo'yiladi.

O'qituvchi bolalar, hammangizning oldingizda konvert bor. Konvertni ochib tanishib chiqing, deydi. Nimalar bor ekanligi haqida bir necha boladan so'rab, ularning shakl va rangi haqidagi tushunchalarini aniqlaydi. Shundan so'ng har bir doirachani rangiga o'xshash rangdagi kartochkalar ustiga qo'yib chiqing, deb tushuntiradi. O'quvchilar doirachalarni kartochkalarning ustiga qo'yib chiqadilar. O'qituvchi berilgan vazifani qanday bajarilganligini kuzatib chiqqandan so'ng, ayrim o'quvchilardan so'rab ularning xatosi bo'lsa to'g'irlaydi va shu tariqa bolalarni so'zlatish yo'li bilan ularning so'z lug'atini aktivlashtiradi, fikr yuritish qobiliyatini rivojlantiradi.

Harakatli o'yin. Asalari ini o'yini

O'yinning maqsadi: o'quvchilarni asalarilarning hayoti bilan tanishtirish, yurish va emaklashga o'rgatish.

O'yin qoidasi: ikkita daraxt oraliq'iga arqonchani bog'lab qo'yib, shu arqonchadan u yog'l asalarilar ini etib belgilanadi. O'yinni boshqaruvchi "Ayiq" so'zini hamma bolalarga eshitarli qilib qattiq ovoz bilan aytadi. Bu so'zni eshitgan bolalar (asalarilar) inlariga qochadilar.

O'yinning sharti: bolalar arqonchani tagidan emaklab o'tishlari lozim. Agarda bu shartni bironta o'quvchi buzsa, unda o'yin qoidasini buzgan hisoblanadi.

O'yinni o'tkazish: o'quvchilarning orasidan bitta boshliq saylanadi. Boshliqning ketidan hamma bolalar bir qator bo'lib tizilib yuradilar. Asta – sekin bir – birlarini qo'llarini ushlab o'ralib oladilar. Hamma bolalar shunday ashula aytib yuradilar.

Ayiq asal yaladi

Asalari uni taladi.

O'quvchilar shu ashulani aytib yurish davomida to'la o'ralashib olganlaridan kegin boshliq "Ayiq" deb qichqiradi. Shu payt hamma arilar inlariga qochadilar. Eng oxirida qolgan o'quvchi yutkizgan hisoblanadi.

Bu o'yinni o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib, musobaqa tarzida o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

O'yinning qiziqarli bo'lishi uchun bolalar qanday harakatlarni egallab olganliklarini hisobga olgan holda uni murakkablashtirib bo'rish tavsiya etiladi.

"Mo'ljalga otish" o'yini

O'yinning maqsadi: o'quvchilarni chaqqonlikka o'rgatish, koptokni mo'ljalga otish ko'nikmalarini hosil qilish.

O'yinning qoidasi: kegliga buyruq asosida koptokni otib, keglilarni yiqitsa, u bitta ochko oladi. Kegllilar esa tezda to'g'rilab qo'yiladi.

O'yinni o'tkazish: bolalar doira bo'lib turadilar, xonada bo'lsa o'tirishlari mumkin. O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. O'qituvchi mo'ljalga ol va ot deganidan keyin qo'lida koptog'li bor o'quvchi, koptokni keglini mo'ljalga olib otadi. Agar o'quvchi keglilarni yiqitsa, u ochko oladi. Yiqitmasa ochko olmaydi va koptokni boshqa o'quvchiga beradi. O'yin yana qaytadan boshlanadi. Bu o'yin dastlabki davrda boshqa narsalarni mo'ljalga olish bilan boshlanadi. O'quvchilar mo'ljalga olishni o'rganganlaridan keyin kegli bilan o'ynashlari mumkin bo'ladi.

Shakllarni olib kel o'yini

O'yinning maqsadi: o'quvchilarni geometric shakllar bilan tanishtirish

O'yin uchun jihozlar: uchburchak, doira, beshburchak shaklidagi kartonlar kesilgan va yasalgan turli rangdagi shakllar stol ustiga tayyorlab qo'yiladi.

O'yinning borishi: o'qituvchi stol ustidagi geometric shakllarning har birini olib bolalarga ko'rsatib, uning nomi, shakli, rangi haqida tushuncha beradi. Shundan keyin shakllar qo'yilgan stoldan nariroqqa borib o'tiradi. O'quvchilardan birontasini chaqirib istagan shaklni olib kelishni buyuradi.

Bola shakli nima uchun uchburchak deb atalishini so'zlab beradi. Stol ustida shunday shakllardan yana bormi? Deb berilgan savolga u bor bo'lsa, bor, yo'q bo'lsa yo'q deb javob beradi. Qo'lidagi shaklni yana nimalarga o'xshatish, qayerda uchratish mumkinligi haqida savol - javob orqali taqqoslash yo'li bilan o'quvchilarning bilimi boyitib boriladi. Shu tariqa bu o'yin bir necha marta takrorlanishi mumkin.

Estafeta o'yini

O'yinning maqsadi: sonlarning ketma - ketligini mustahkamlash

O'yin uchun jihozlar: koptok

O'yinning borishi: o'qituvchi bolalardan biriga koptok beradi (bolalar joylarida partalarda o'tirishadi), koptokni olgan bola "bir" deydi va koptokni o'rtog'iga beradi. Koptokni olgan bola "ikki" deyishi va koptokni navbatdagi o'quvchiga berishi kerak. O'yin davomida har bir o'quvchi o'zidan oldingi o'quvchi aytgan sondan keying sonni aytib sanoqni davom ettiradi.

Bu o'yinni 1,2,3 dan boshlab keyinchalik bolalarning son haqidagi tushunchasi kengayib borishi maqsadida murakkablashtirib boriladi.

Ko'ngilochar o'yinlar

Mavzu : Suv bayrami

Maqsad: Aqli zaif bolalarni suv haqidagi bilimlarini oshirish. Suvning xususiyatlarini, suvdan qanday foydalanish kerakligini, suv bu hayot ekanligini o'rgatish, bolalarni madaniy chiniqtirish ko'nikmalarini oshirish. O'ynab turib o'ylashga, o'ylab turibo'ynashga o'rgatish.

O'yinnig borish:

Hovuzchada suvlar mo'l,
Suvda suzar o'rdak sho'x.
Qurbaqalar vaqillar,
O'rdaklarga cho'zar qo'l.

Tarbiyachi : Qurbaqa-yu o'rdakchalar qani kelinglar, bu erdp suv bayramini **nishonlaymiz.**

Musiqa sadolari ostida qurbaqa va o'rdakchalar kirib keladi.

Tarbiyachi : Qurbaqa-yu o'rdakchalar, hovuzchamizda suvlar to'libdi, suvda mazza qilib o'ynab, har-xil o'yinlar o'ynaymiz. Sehrli musiqa sadolari ostida suv malikasi paydo bo'ladi.

Suv malikasi: Meni bilsangiz, suv malikasidurman, suvda o'ynaydiganlarga mening shartim bor. SHu shartni kim bajara olsa, shu hovuzda o'ynab kuladilar. Men sizlarga topishmoq aytaman. Agar topishmoqning javobini topsangiz, hovuzda o'ynab kulishlaringga ruxsat beraman.

Men aytaman topishmoq,
SHovqin solmangiz biroq.
Qani do'stlar bo'ling jim,
Darrov topar ekan kim.

1. Usiz yashab bo'lmaydi,
Qo'l yuz toza bo'lmaydi.

(suv)

2. Boshi boru sochi yo'q,
YOg'dan boshqa hushi yo'q.

(Baliq)

3. Vaq-vaq etadi,

Ko'lmak suvda turadi.

Suv malikasi : Qurbaqa-yu o'rdakchalar, sizlar juda bilag'on bola ekansizlar. Suvdan yana qanday foydalaniladi ?

1. Hamma yoqni toza va ozoda qilish uchun.
2. Suv bu-hayotdir.
3. Suvda gullar ham o'sadi.

Suv malikasi : Suvda qanday gullar o'sadi ?

1. Suvda Nilufar gullar o'sadi. Bizning maktabgacha ta'lim muassasamizning nomi ham "**Nilufar**".

2. Suvdan butun borliq yashnaydi.
3. Suvni isrof qilmasdan tejab ishlatish kerak.
4. Suv- bu yorug'lik.
5. Suvsiz hayot bo'lmas, mehnatsiz rohat.

Suv malikasi : Sizlar suvning xususiyatlarini bilasizmi?

— Yoz faslida suv qanday bo'ladi ?

— Issiq bo'ladi.

— Kuz faslida suv qanday bo'ladi ?

— Sovuq bo'ladi.

— Qish faslida-chi ?

— Suvlar muzlaydi.

— Bahor faslida-chi ?

— Muzlagan suvlar erib, suv holiga qaytadi.

Suv malikasi : Qurbaqa-yu o'rdakchalar, sizlarni topqirlaringiz, hozirjavobligingiz meni qoyil qoldirdi. Rahmat sizlarga.

Tarbiyachi : Suv malikasi, hozir biz bolalar bilan, suvda kim ko'p gul terish musobaqasini o'tkazamiz. Siz ham ko'rib tomosha qiling. Hovuzdagi suvga gullar uzilib tashlanadi. Qurbaqa va o'rdakchalar guruhiga bo'linib, suvdagi gullarni kim ko'p terishga ruxsat beriladi. Gulni ko'p tergan guruh rag'batlantirib, ularga sovg'a beriladi.

Teatr o'yinini tashkil qilish.

1) **uzluksiz ta'lim faoliyati davomida.** Teatrikani o'ynoqi uslub sifatida qamrab olishga harakat qilaman (aqli zaif bolalarga ma'lum bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni egallashga yordam beradigan belgilar kiritiladi).

Masalan: Tulki tashrif buyuradi, u ranglarni chalkashtiradi va aqli zaif bolalar unga bu haqda aytib berishadi.

2) Tarbiyachining aqli zaif bolalar bilan birgalikdagi faoliyati. Men o'z ishimda yurish uchun o'yin vaziyatlaridan foydalanaman, dramatik o'yinlar tashkil qilaman, badiiy adabiyotni o'qiyman, kun davomida fitna epizodlarini o'ynayman, o'yinlarni chizaman

bepul mavzu. Bularning barchasi ijodiy fikrga turtki, amalga oshirish kerak bo'lgan g'oya.

3) Aqli zaif bolalarning mustaqil faoliyatida teatrlashtirilgan o'yin... Kechqurun men ertaklarni o'qib bo'lgach, teatr o'yinlari aqli zaif bolalarni hayajonga solgan qahramonlar va syujetlarni qanday aks ettirganlarini, qahramonlarning fe'l-atvori o'z-o'zidan o'tib ketishiga qanday imkon berishini tomosha qilaman. Va men o'z ishimning natijasini ko'rmoqdaman. Qanday murakkablik asta-sekin "eriydi" va aqli zaif bolalar qo'rquvni engishadi.

Men shuningdek o'yinlar va nutq mashqlarini o'z ichiga olaman. Jismoniy mashqlar nafaqat aqliy faollikni oshiradi, balki nutq qobiliyatini yaxshilaydi, aqliy jarayonlarning rivojlanishiga yordam beradi va hissiy faoliyatni oshiradi. Aqli zaif bolalar atrofdagi dunyo haqida bilishadi, odamlar, hayvonlar, o'simliklar hayotidagi tadbirlarda qatnashadilar. Aqli zaif bolalarni asosiy narsani - asosiy qahramonlarning xatti-harakatlari, o'zaro munosabatlari va harakatlaridan ajratishga yordam berish uchun savollarni to'g'ri shakllantiraman. To'g'ri qo'yilgan savol aqli zaif bolani fikrlashga, aks ettirishga, kerakli xulosalarga kelishga va shu bilan birga asarning badiiy shaklini payqashga va his qilishga majbur qiladi. Biz ertaklardan majoziy iboralarni, to'g'ri so'zlarni, nutqning burilishlarini, maqollar va so'zlarni olamiz, aqli zaif bolalar nutqini boyitib, qiziqarli va ta'sirchan qiladi.

Savollarga javob bergandan so'ng, men aqli zaif bolalarni drammatizatsiya o'yinida ertakni "ko'rsatishga" taklif qilaman. O'yin-teatrlashtirish, ayniqsa, o'rta maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar uchun juda muhimdir, ya'ni. hayotning beshinchi yili. Ertakni takrorlashda men stol teatridan foydalanaman. Keyin aqli zaif bolalar ertakning audio yozuvini tinglashadi, taqdimotni

tomosha qilishadi. Ertakni har bir yangi o'qish aqli zaif bolalarda yangi tuyg'ularni uyg'otadi, ular yana tinglashni va taniqli ertakni yangi shakllarda ko'rishni xohlashadi.

aqli zaif bolalarning kuzatuvlari shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuv bilan, hatto eng qo'rqinchli aqli zaif bolalar ham dramatik o'yinlarda qatnashib, tashvishlarni engish osonroq bo'ladi.

"Oltin kalit yoki Buratinoning sarguzashtlari"

· qo'g'irchoq tomoshalarini tomosha qilish va ular haqida gaplashish;

· dramatisatsiya o'yinlari;

· bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishi uchun mashqlar;

· tuzatish va ta'lim o'yinlari; diksiyon mashqlari (artikulyar gimnastika);

· nutqning intonatsion ekspressivligini rivojlantirish bo'yicha vazifalar;

· transformatsion o'yinlar ("tanangizni boshqarishni o'rganing"), majoziy mashqlar;

· bolalar plastikasini rivojlantirish uchun mashqlar;

· ritmik daqiqalar (logotip ritmikasi);

· bepul qo'g'irchoqbozlik uchun zarur bo'lgan qo'l motorini rivojlantirish uchun barmoq bilan mashq qilish;

· ifodali yuz ifodalarni rivojlantirish uchun mashqlar, pantomima san'atining elementlari;

· teatr eskizlari;

· dramatisatsiya paytida alohida etika mashqlari;

· turli xil ertak va spektakllarni tayyorlash (tayyorlash) va ijro etish;

· nafaqat ertak matni bilan tanishish, balki uni dramatisatsiya qilish vositalari - imo-ishora, yuz ifodalari, harakat, kostyum, bezaklar (rekvizitlar), mise-en-scene va boshqalar.

Nutqni rivojlantirish uchun teatr faoliyatining vazifalari.

O'rta guruh.

Aqli zaif bolalar lug'atini to'ldiring va faollashtiring. Teatr qahramonlari, buyumlar, bezaklarning joylashishini aniqlash va nomlash, teatr tomoshasi personajlarining kayfiyati va kayfiyatini tavsiflash qobiliyatini shakllantirish. Tovush va undosh

tovushlarning to'g'ri talaffuzini kuchaytirish. So'z va iboralarning aniq talaffuzini yaxshilang. Nutqning intonatsiyasi va ekspressivligini shakllantirish. Teatr va o'yin faoliyati jarayonida aqli zaif bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish.

Katta guruh.

Nutqda otlar, sifatlar, fe'llar, atamalar, old qo'shimchalar yordamida aqli zaif bolalarning so'z boyligini boyitishni va faollashtirishni davom eting; barcha tovushlarning to'g'ri talaffuzini birlashtirish uchun. Nutqning intonatsion ekspressivligini yaxshilash uchun. Aqli zaif bolalarni ertaklar sahnasida to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita nutqdan foydalanishni o'rgating. Dialogik va monologik nutqni, uning shaklini rivojlantirish. Katta yoshdagilarning yordamisiz ertaklarni izchil va ifodali ravishda qayta o'qish qobiliyatini yaxshilang.

Tayyorlov guruhi.

Aqli zaif bolalarning so'z boyligini oshirish va takomillashtirishni davom eting. Ob'ektlar, harakatlar, belgilar nomlarini anglatadigan so'z birikmalarini kengaytiring. Barcha tovushlarning to'g'ri talaffuzini mustahkamlang, diksiyani mashq qiling, nutqning intonatsion ekspressivligi ustida ishlashni davom eting. Nutqning dialogik va monologik shaklini yaxshilash. Og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirish.

Aqli zaif bolalarning teatr faoliyatini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi, nutqini yaxshilash uchun shartlardan biri bu tarbiyachining ota-onalar bilan samarali o'zaro ta'siri. Oila sharoitida aqli zaif bolaga uning rivojlanish xususiyatlariga, moyilliklariga, o'qish qiziqishlariga va boshqalarga qarab etarlicha e'tibor berilishi mumkin. Onangiz bilan badiiy o'qish ustalari tomonidan ijro etilgan ertakni tinglashingiz, adabiy asar uchun rasmlarni ko'rishingiz, ertak qahramonini muhokama qilishingiz mumkin.

Shunday qilib, teatr o'yinlari katta maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda uyg'un nutqning rivojlanishiga ta'sir qiladi, agar bu qiziqish va o'yinga qo'shilish istagini uyg'otsa, shuningdek, aqli zaif bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga oladi.

maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar uchun eng qulay teatr turlari barmoq va qo'g'irchoq teatrlari.

Barmoq teatri - nutq, e'tibor, xotira rivojlanishiga yordam beradi, fazoviy ifodalarni shakllantiradi, tezkorlik, aniqlik, ekspressivlikni, harakatlarni muvofiqlashtirishni rivojlantiradi, miya yarim korteksining samaradorligini va ohangini oshiradi. Ushbu teatrning ma'nosi aqli zaif bolani barmoqlariga haykalchalar qo'yishga undash va ertak aytib berishga harakat qilishdir (har xil, ammo har doim asl matnga asoslangan). Barmoq uchlarini stimulyatsiya qilish ham nutqning rivojlanishiga olib keladi. Qo'l harakatlarini taqlid qilish, barmoqlar bilan o'yinlar aqli zaif bolaning nutqini va aqliy rivojlanishini tezlashtiradi, tezlashtiradi. Bu nafaqat ko'plab avlodlarning tajribasi va bilimlari, balki barmoqlarning motorli impulslari "nutq" zonalari shakllanishiga va aqli zaif bolaning butun miya yarim korteksiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlagan fiziologlarning izlanishlari. Shuning uchun qo'llarning rivojlanishi aqli zaif bolani yaxshi gapirishga yordam beradi, qo'lni yozishga tayyorlaydi, fikrlashni rivojlantiradi.

4-5 yoshga kelib, aqli zaif bola asta-sekin kattalar teatrlashtirilgan tomoshasidan mustaqil o'yin faoliyatiga o'tadi. Aqli zaif bolalar stol teatrining har xil turlarini o'zlashtiradilar: trikotaj teatri, konus teatri, xalq o'yinchoqlari va samolyotlar teatri va yumshoq o'yinchoqlar.

Rasmlar teatri - teatrning bu turi aqli zaif bolalar bog'chalari guruhlarida turli xil o'yinlarni joriy etishga yordam beradi. Bunday o'yinlar ijodkorlikni rivojlantiradi va ularning estetik tarbiyasiga hissa qo'shadi. Yosh aqli zaif bolalar rasmlarga kitoblardan qarashni yaxshi ko'radilar, lekin agar rasmlar harakatlanuvchi va harakatlanuvchi tarzda namoyish etilsa, ular yanada ko'proq zavqlanishadi.

Kattaroq maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar komplekslardan ozod qilinadi va teatr o'yinlarida faol ishtirok etadilar. Aqli zaif bolalar tomonidan yaratilgan qo'g'irchoq mahorat turli xil teatr tizimidagi qo'g'irchoqlarning bir nechta turlarini bitta teatr o'yinida birlashtirishga imkon beradi.

Tayyorgarlik guruhida teatr o'yinlari qahramonlarning ko'p qirrali xususiyatlari, sahna ko'rinishi qiyin sahna ko'rinishlari, ulardagi boshqarish qiyin bo'lgan qo'g'irchoqlar bilan ajralib

turadi. Aqli zaif bolalar qo'g'irchoqlar, niqoblar, bezaklar, afishalar va boshqa atributlarni tayyorlashga qiziqishmoqda.

Qo'g'irchoq teatri o'ynatilganda siz jimgina o'ynay olmaysiz. Axir, aqli zaif bola aktyor, rejissyor va o'z o'yinining ssenariy muallifiga aylanadi. U fitna o'ylab topadi, uni o'qiydi, qahramonlarning ovozini eshitadi, tajribalarini aytib beradi. Aqli zaif bola rus tilining boyligini, nutqning ifodali vositalarini, harflarning turli intonatsiyalarini o'zlashtiradi va tinglovchilar uni tushunishi uchun to'g'ri va aniq gapirishga harakat qiladilar. Qo'g'irchoq teatrida o'ynashda nutq yanada jadal rivojlanadi, turli vaziyatlarda aloqa qilish tajribasi boyitiladi, so'z boyligi miqdoriy va sifat jihatdan boyitiladi.

Qo'g'irchoq bilan o'ynash bilvosita va sezib bo'lmaydigan har tomonlama terapevtik va tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lib, aqli zaif bola eng himoyasiz bo'lgan sohada muvaffaqiyat hissini topishga yordam beradi. Qo'g'irchoq bilan o'ynash aqli zaif bolalarga individual xususiyatlarini to'liq rivojlantirish imkoniyatini beradi. O'yinda - aqli zaif bolaning so'zlari qo'g'irchoqlarni jonlantirishi va ularga kayfiyat, belgi berishi kerak. Aqli zaif bola qo'g'irchoqlar bilan o'ynab, o'zining yashirin his-tuyg'ularini nafaqat og'zaki, balki yuz ifodasi, imo-ishoralari bilan ham ochib beradi.

Aqli zaif bolalarning ufqlari kengayishi bilan sahna ko'rinishlari yanada murakkablashadi: belgilar soni ortadi, spektakllar syujeti yanada murakkablashadi. Teatr haqidagi bilimlar oshgani sayin, aqli zaif bolalar uning turli turlari bilan tanishishni davom ettirmoqdalar.

Mana ba'zi misollar.

Teatrdan tayoqcha - qo'llarning egiluvchanligi, ularning harakatlarini boshqarish, faoliyatning bir turiga e'tibor qaratish, harakatlarni nutq bilan taqqoslash qobiliyati rivojlandi.

Trikotaj teatri - vosita, vizual, eshitish muvofiqlashtirishini rivojlantiradi. Ijodkorlikni, badiiylikni shakllantiradi. Passiv va faol so'z boyligini boyitadi.

Konus teatri - qo'llar va ko'zlarning harakatlarini muvofiqlashtirishga, nutq bilan barmoqlarning harakatlarini kuzatishga o'rgatishga yordam beradi. O'z his-tuyg'ularingizni yuz ifodalari va nutq orqali ifoda eting.

Teatr - topatushki - Eshitish va sezgir idrokni bog'lab, so'z boyligini kengaytirishga yordam beradi. Xalq san'ati bilan tanishtiradi. Muloqot, o'yinlar, hisoblashlarni o'rgatadi.

Qo'lqopdagi teatr.Qo'g'irchoq - qo'lqop ajoyib terapevtik ta'sirga ega. Sinf xonasida aqli zaif bola qo'g'irchoq - qo'lqop bilan o'yinda ziddiyatli vaziyatni hal qilish orqali uni bezovta qiladigan qo'rquvdan yoki qo'rquvdan xalos bo'ladi. Pukloterapiya nutq buzilishi, nevrozli aqli zaif bolalar bilan ishlashda juda yaxshi natijalar beradi. Qo'lqop qo'g'irchoq'i aqli zaif bolalar boshdan kechiradigan barcha his-tuyg'ularni etkazishi mumkin. Aqli zaif bolalar qo'g'irchoqda kechinmalarining aksini ko'radilar, agar u yig'layotgan bo'lsa tinchlanadilar, ularni pyuresi bilan boqadilar va hokazo.

Shunday qilib, teatr faoliyati nafaqat o'yin, balki aqli zaif bolalar nutqini jadal rivojlantirish, so'z boyligini boyitish, shuningdek, to'g'ri nutqning psixologik asosi bo'lgan fikrlash, tasavvur, e'tibor va xotirani rivojlantirish uchun ajoyib vositadir.

Va, albatta, teatrda aqli zaif bolalar bilan ishlash orqali biz o'quvchilarimizning hayotini qiziqarli va mazmunli qilamiz, uni yorqin taassurotlar va ijod quvonchiga to'ldiramiz. Aqli zaif bolalar bog'chasidagi teatr aqli zaif bolani hayotda va odamlarda go'zallikni ko'rishga o'rgatadi va hayotga go'zal va yaxshilarni jalb qilish istagini uyg'otadi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni o'yin o'ynashga o'rgatishda guruh xonasida o'yin burchagining borligi katta ahamiyatga ega. O'yin burchagini jihozlash o'yinchoqli javon hamda bir qism o'yinchoqlar joylashgan to'shalgan gilamni o'z ichiga oladi.

Aqli zaif bolalar muassasada o'yin burchagini jihozlash ta'lim davrining har yilida bolaning o'yin faoliyati rivojlanishining asosiy vazifalariga va yosh talablariga jiddiy javob berishi kerak. O'qish davrining birinchi yilida guruhlarda o'yin burchagini jihozlashda bolalarda o'yin o'ynashga qiziqishni uyg'otadigan, o'ynashni xohlaydigan o'yinchoqlar, albatta kiritiladi. Bu sujetli o'yinchoqlar: kiyimi oson yechiladigan o'rta kattalikdagi qo'g'irchoqlar, iloji boricha yumshoq matodan bo'lgan aniq qiyofa va rangdagi hayvon - o'yinchoqlar (quyoncha, ayiqcha, kuchukcha, mushukcha),

aravachalar, g'ildiraklar, kubiklar, katta miqdordagi turli o'yinchoqlar: matryoshkalar, piramidachalar, mozaikalar.

Hamma o'yinchoqlar yetarli miqdorda va yaxshi holatda bo'lishi zarur. Bola osongina olishi uchun ular javonning pastki tokchasida bo'lishi ham ahamiyatli. "Mozaika", "Rangli kubiklar", "Kichkintoylarga - loto" turidagi o'yin qo'llanmani yuqori tokchalarda yotadi. Ular tarbiyachi bilan jamoaviy didaktik o'yinlar o'tkazilganida bolalarga beriladi.

Dramatik o'yinlar uchun o'yin belgilari to'plami, liboslar, maketlar kerak bo'ladi, ular bolalarning mustaqil foydalanishi uchun mo'ljallanmagani uchun alohida xonada saqlanishi kerak.

Bundan tashqari ta'limning birinchi yili guruhi tarbiyachisi bolalar uchun bir nechta sujetli o'yinchoqlarni alohida saqlaydi. O'yin jihozlarining to'plamida stol qo'g'irchoq teatri hamda teatrlashtirilgan o'yinlar o'tkazish uchun shirma kerak bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilganidek bolalar bilan ochiq havoda yer maydonida o'yinlar o'tkazish uchun suv va qum uchun mo'ljallangan koptok, o'yinchoqlar to'plami (kurakcha, belkurak, xaskash) bo'lishi kerak. Sayr uchun o'yinchoqlar, bir nechta qo'g'irchoq, kuchukcha, sigir, ot albatta ajratish kerak. Sayr uchun tanlangan o'yinchoqlarga ayamasdan munosabatda bo'lish yaramaydi va bolalarga singan, isqirt kiyingan, kam e'tiborni tortadigan o'yinchoqlarni berish kerak emas. Shuni esda tutish kerakki, ochiq havodagi o'yinlar - bu aqli zaif bolaning o'yin faoliyati shakllanishi bo'yicha qilingan umumiy ishning asosiy qismi hisoblanadi.

Ikkinchi yili ta'lim olayotgan bolalar uchun o'yin burchagining mazmuni bir qancha o'zgaradi. Bu yerda sujetli o'yinlar uchun o'yinchoqlar ustunlik qiladi. O'yin burchagida albatta turli xil qo'g'irchoqlar bo'lishi kerak. Bolalarni turli millat vakillari bilan ularning maishiy turmushi bilan tanishtirish uchun bir nechta milliy libosdagi qo'g'irchoqlarni olish ham yaxshi bo'ladi. O'yin burchagida o'yinchoq hayvonlarni - toychoq, sigir, echkicha, hamda tulki, yo'lbars, ayiqcha va boshqalar bo'lishi zarur. Qurulish o'yinlari uchun pol ustidagi "quruvchi" yirik har xil "konstruktorlar" olinishi kerak. Hamda mashina uchun maxsus joy (garaj) ham ajratish kerak.

Ikkinchi yilda ta'lim olayotgan bolalarning o'yin faoliyati ancha har xil tus oladi, stol ustidagi o'yinlarni tashkil etish uchun o'yinchoqlar kerak bo'ladi: mozaika, loto, mayda qo'g'irchoqlar, askarchalar turidagi didaktik o'yinchoqlar.

Sujetli o'yinlar uchun kerakli o'yinchoqlar to'plamini g'amlab qo'yish kerak: "do'kon", "kasalxona", "sartaroshxona". Lekin bir qism o'yinchoqlarni tarbiyalanuvchilarning o'zlarini jalb qilib tayyorlashlari mumkin.

Bolalarda rolli harakatlarni rivojlantirish uchun boshqacha ifodalashni bilish kerak. Biroq intellekti buzilgan bolaning buni bajarishi oson emas. Unga o'yin ishtirokchilarining liboslari bu ishtirokchi haqiqiy ertakdagi bo'lmasa ham yordam beradi. Qizcha onasini tasvirlar ekan peshband taqqisi kelib qoladi, tarbiyachi bo'lib o'ynar ekan u xalatdan foydalanadi, sotuvchiga esa xalat bilan qalpoqcha kerak. Guruhda doim ozoda va o'ziga e'tiborni qaratadigan ko'rinishda bo'lgan kerakli libos va atributlar bo'lishi kerak. O'yin burchagi yoniga bu narsalarni qo'yish uchun shkafcha yoki kiyim osgichga joy ajratish kerak. Biroq o'yinning hamma atributlari, o'yinchoqlarni oldindan qo'yib qo'yish kerak emas. Bolalar u yoki bu o'yinni o'ynashni boshlashlari bilan uni o'tkazish uchun o'yin burchagini jihozlash kerak. Bir qancha vaqt o'tganidan keyin o'yin mazmunini yangilab turish, yangi o'yinchoqlar, qo'llanmalar qo'shish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'yin burchagida o'yinchoqlarning joylashishiga alohida e'tibor berish kerak. Ularning bir qismi stellajning tokchalaridan joy oladi, qolganlarini esa pol ustida bolalar o'yinlari an'analariiga ko'ra taqsimlash kerak. O'yin burchagida albatta qo'g'irchoqlar uchun xonadonni jihozlash zarur unda ovqatlanadigan xona, yotoqxona, oshxona, vanna xonasi, ancha mahkam yirik miqdordagi chiroqli va qulay bo'lgan mebellar ham kerak (bolalar o'yin jarayonida qo'g'irchoq stol yoki divanga o'tirib ko'rishlari, qo'g'irchoq qo'l yuvadigan moslamada qo'l yuvishlari mumkin). Faqatgina mebellarni qo'yish emas, balki qo'g'irchoq xonadoni sharoitini jonlashtirish - uning interyeriga kerakli narsalarni televizor, chiroq, oshxonadagi javonga kattaroq bo'lgan qo'g'irchoq idish - tovoqlarni qo'shish, shkafga qo'g'irchoq kiyimlarini osish, o'rin solish kabi ishlarni qilish lozim. Qo'g'irchoq

xonadoni bolalar qo'g'irchoq bilan erkin o'ynashi uchun kengroq bo'lishi muhim.

Birinchi yili ta'lim olayotgan bolalar guruhidagi kabi bu yerda ham ochiq havoda o'yinlar tashkil qilish uchun o'yinchoqlar to'plami bo'lishi zarur. Unga sujetli o'yinchoqlar ham harakatlantiruvchi o'yinlarni o'tkazish uchun atributlar ham: serso (osmonga irg'itilgan halqani chillak bilan ilib olish o'yini) o'yini uchun to'plam, bayroqchalar, koptoklar, kegli (butilka shaklidagi yog'ochlarni tik qo'yib soqqa bilan urib o'ynaydigan o'yin) kirishi kerak. Yuqori guruhlar uchun o'yin burchagida bola tayin o'yin holatiga tushib qolishi uchun o'yinchoqlarni shu tarzda guruhlanadi: bolalar tushlik pishirishi, qo'g'irchoqning kiyimlarini yuvishi, uni dazmollashi, tikuv mashinasida tikishi va boshqalar mumkin bo'lgan; o'g'il bolalarda harbiy xizmatga nisbatan paydo bo'ladigan qiziqishni hisobga olish va harbiy mavzudagi sujetli - rolli o'yinlar uchun kaska, miltiq va liboslar atributini ajratish, turli maishiy o'yinlarni kengaytirish uchun maydon tashkil etish kerak.

Katta guruhlarda dramatik o'yinlarni amalga oshirish uchun liboslar turadigan maxsus joy tashkil etish o'rinli. Quruvchilik o'yinlari uchun to'plamlarni har xil tuzish, unga kema, samolyot, raketa kabi inshootlar qurish uchun belgilar kiritish kerak. Katta yoshdagi bolalarda turli stol ustidagi o'yinlarga qiziqish uyg'onadi. Shuning uchun "Zoologik loto", "Biz teatrdamiz", "Baliqchani tut" kabi o'yinlarga ega bo'lish zarur.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar didaktik mayda o'yinchoqlarni yaxshi ko'rib o'ynaydilar, shuning uchun soldatchalar (dengizchilar, chavandozlar), mayda qo'g'irchoqlar, hayvonlar, hamda ular uchun bir nechta yig'ilib - buziladigan uychalar, katta bo'lmagan miqdordagi garajlar to'plamini olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar uchun o'yinchoqlar hisobiga turli plastmassali "konstruktorlar", mozaikali pannolar yasash uchun to'plamlar kiradi.

Bir nechta burab yurgiziladigan o'yinchoqlar bo'lishi ma'qul: "Temir yo'l", "Raketa", "Samolyot" va boshqalar. Ular alohida saqlanishi kerak, chunki bolalar ulardan doimiy foydalana olmaydilar.

Bolalarning o'yin o'ynash qobiliyatlari haqida so'nggi xulosa qilish uchun ularning birgalikdagi o'yinlari ustidan maqsadli kuzatuv o'tkazish kerak, bunday jarayon pedagogka bolalar xulqining yakka xususiyatlarini ochib berish imkonini beradi.

Defektolog guruhdagi har bir tarbiyalanuvchining o'yin faoliyati ustidan to'la tekshiruv o'tkazganidan keyin u chorak rejasini tuzishga kirishadi, hamda "O'yin" dasturining bo'limi bo'yicha nazarda kutilayotgan ish usullari va vazifalarini shakllantiradi.

Defektolog chorak rejalaridan tashqari haftalik rejalar ham tuzadi va o'yin o'ynashni o'rgatishga bag'ishlangan mashg'ulotlar hisobini olib boradi, mashg'ulotlarning qisqa natijasini izohlaydi, qiyinchiliklarni, yutuqlarni belgilaydi va kelajak uchun izohlar qiladi.

Defektologlar "O'yin" bo'limining tub mohiyatini har doim ham to'g'ri tushunmaydilar. Ba'zi maktabgacha tarbiya muassasalarida defektologlar umuman bu bo'lim bo'yicha ish olib bormaydi. Bunda uning ishi ko'pligi hamda shu bo'limning ikkinchi darajali ekanligi bahona qilinadi.

Shu munosabat bilan yana ta'kidlab o'tmoqchimiz, maxsus maktabgacha tarbiya muassasasida o'tkazilayotgan butun korreksion - tarbiyaviy ishning markaziy vazifasi bo'lib o'yin o'ynashga o'rgatish hisoblanadi, shuning uchun o'zboshimchalik bilan bir ish turini ikkinchisi bilan almashtirish butun korreksion jarayonni buzadi va anomal rivojlanayotgan bolaga yaxlit pedagogik ta'sir qilish sharoitini yaratmaydi.

"O'yin" bo'limi bo'yicha defektolog ishining asosiy maqsadi shundan iboratki, uning rivojlanishining oliy pog'onalarida vaziyatni anglashini, narsa - o'rinbosarlar harakatini, rolli axloqni o'z ichiga oladigan o'yinning murakkab mexanizmi bolada o'rgatish jarayonida shakllantirishdir.

O'yin faoliyatiga o'rgatish, masalan bolalarni texnologiyaiga o'rgatishga qaraganda maxsus sharoitda o'tkazilishi kerak. Pedagog o'yin bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazar ekan agar u hayajonli va qiziqarli qilib harakat qilmasa, uning bolalarda o'yin faoliyatini shakllantirishga qaratilgan hamma harakatlari oldindan barbod bo'lishi mumkin.

O'yinga o'rgatish mashg'ulotlarini xonada, stol atrofida emas, bolalar o'zlarini ancha erkin va bemalol his qiladigan guruh xonasida, o'yin burchagida o'tkazish mumkin. Bunda pedagog bolalar uchun muayyan bilim va mohirlikni beruvchi vosita bo'lib emas, balki o'yindagi ko'p ishni qila oladigan va bunga o'rgatishi mumkin bo'lgan ancha tajribali do'st sifatida chiqishi kerak.

Pedagog uchun bolalar bilan boshqa mashg'ulotlarda odat bo'lib qolgan qattiqqo'llik va ishchanlik ko'rinishida emas, balki muloqot usuli yumshoq, hayajonli, ishonuvchanlik ko'rinishiga almashtirilishi kerak. Bolalar pedagogni o'yindagi sheriklari sifatida qabul qilishlari, ularda esa ishtirokchilar sifatida va pedagogning o'yindan manfaatdorligini his qilishlari muhim.

Pedagog turli yosh guruhlarida o'zini shu bosqichda qanday masala hal qilinayotganiga qarab har xil tutadi.

Dastlabki o'yinga o'rgatish bolalarda o'yinchoqlarga va ularning harakatiga faol qiziqishni shakllantirish masalasini qo'yar ekan pedagog mashg'ulotlarda bolalar faoliyatining tashkilotchisi hisoblanadi, undan o'yinchoqlar tanlash tashabbusi va ular bilan harakatlarni amalga oshirish kelib chiqadi. Bolalar hali bunday mashg'ulotlarda pedagog bilan o'yindagi teng huquqli sheriklar sifatida emas, balki ularni boshqarib turuvchi hamishtirokchilari bo'lib qatnashadilar. Pedagog bolalarni o'yin bilan shunday qiziqtirishi kerakki, ularga o'rgatilgan harakatlar majburiy deb qabul qilmasin. Bunga eng oldin pedagogning o'yin harakatlarini hayajonli bajarishi sabab bo'ladi, uning o'yinga o'ta qiziqishi, ma'lum ma'noda "ikkiga bo'linish" qobiliyati, bir tomondan bolalarni boshqaruvchi ularga o'rgatuvchi katta odam bo'lib qoladi, boshqa tomondan o'zi aqli zaif bolaning o'rnida turadi, sodir bo'layotgan voqealarga uning ko'zi bilan qarashga harakat qiladi.

Katta yoshdagi bolalarni o'yinga o'rgatishda pedagogning holati birmuncha o'zgaradi. Pedagogning keyingi vazifasi bolalarda o'yin personaji obrazlarini gavdalantirish mahoratini shakllantirish bo'ladi, buning uchun turli o'yin usullari va vositalaridan foydalaniladi. Bolalar endi o'yin tajribasiga ega bo'lganlarini va o'yinni mustaqil ochib berishga qodirliklarini

hisobga olib, pedagog o'ziga sherik, o'rtoq vazifasini oladi. Pedagog bolalarni turli usul, yangi o'yin turlariga o'rgatar ekan bolalar uchun o'yin o'yinligicha bo'lib qoladi, o'yinga o'rgatish o'yinning ma'lum qisminigina tashkil etishni pedagog unutmashligi kerak. Masalan, pedagog uchun bolalarga o'yinning muayyan usullarini namoyish qiladi. Bolalar o'yindagi katta sherikdan, katta o'rtoqdan yangi o'yin usullarini qabul qiladilar, qiziqarli, maroqli o'ynashga o'rganadilar.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar kattalar harakatini qaytarishga moyildirlar. Tashqaridan qaraganda bu bola tomonidan faoliyatning muayyan usullarini egallash bo'lib ko'rinishi mumkin. Masalan pedagog "haydovchi" o'yini uchun katta bo'lmagan diametrdagi chamberaklarni moslash mumkinligini ko'rsatadi.

Bolalar xursandlik bilan o'yinning yangi usulini o'zlashtirib oladilar, o'zlari chamberaklarni rul sifatida qo'llab ko'radilar. Biroq bu hali ularda o'yinda o'rinbosar – narsalardan foydalanish ko'nikmalarini paydo bo'lganini ko'rsatmaydi va pedagog tomonidan o'rin bosish funksiyasining paydo bo'lishi deb baholanmasligi kerak. Bu faqat bolalarni aniq o'yin vaziyatida aniq narsadan foydalanishni egallaganligini bildiradi. Agar maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar ularga tanish bo'lgan chamberakdan, qo'g'irchoqning dala hovlisini devori sifatida foydalana olganlarida edi, bu o'yin faoliyatida o'rinbosar – narsalar bilan harakat qilish qobiliyatining paydo bo'lishini ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni o'yinga o'rgatishni tashkil qilish bilan birga defektolog hamma bolalarning bu turi uchun umumiy faoliyat xususiyatlarini hamda shaxsiy sifatlarini hisobga olish kerak. Bolalarni katta jamoalarga birlashtirish (uch kishidan ko'proq) har doim ham qiyinchilik bilan amalga oshiriladi. Shaxsiy xususiyatlarini ko'rsatishda xulqlaridagi farqlarni bartaraf etish qiyin bo'ladi. Shuning uchun o'yin jarayonida bolalarning to'g'ri o'zaro munosabatini shakllanishiga alohida e'tibor ko'rsatish kuzatiladi. Pedagog bolalarni diqqat bilan kuzatar ekan, ular orasida o'yin paytida doim yetakchi sifatida o'zini ko'rsatgan liderlarni ajratib oladi. Ular intellektual

jihatdan ancha yaxshi saqlangan, boshqa bolalar ustidan "boshchilik qilish" ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Ba'zida yaxshi o'yin tashkilotchisi deb ular to'g'risida yolg'on tasavvur ham paydo bo'ladi. Ular aslida bolalarga kuch bosimi orqali ta'sir ko'rsatadilar, ularni qo'rqitishadi, zo'ravonlik bilan bo'ysunishni talab qiladilar. Bunday bolalarga bosh rollarni o'zlariga olishni taqiqlamagan holda ularda navbatma - navbat odatiga rioya qilishni boshqa ishtirokchilarda ham o'yinga boshchilik qilish xohishi borligini tushunish kerakligini tarbiyalash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 22 dekabrda 802-son Qarori
2. "Maktabgacha ta'lim metodikasi" 2018 yil
3. Shomaxmudova R.Sh., Mo'minova L.R. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. O'qituvchi. T.: 1993 y
4. R.F.Qodirov, M.Fayzullayev. Bolalar nutqini o'stirish 2008 yil
5. Mo'minova L. R. "Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqini rivojlantirishning korreksion pedagogik asoslari" Avtoreferat
6. Акрамова Ҳ.С. Дидактик ўйинлар – ўқувчи шахсини шакллантиришдаги ўрни // Гармонично развитое поколение- условие стабильного развития Республики Узбекистан Сборник научно-методических статей. Тошкент, 2015- №5, Б 42-43.
7. Акрамова Ҳ.С., У.Қ.Джураева. Махсус таълимда имконияти чекланган болалар учун интеграциялашган ва инклюзив таълим// Ҳимояга муҳтож гуруҳдаги болалар ва уларнинг оилаларига мажмуавий ёрдамнинг самарали модели-уларнинг жамиятга жтимоийлашувини таъминлаш омили сифатида. Республика илмий-амалий конференция 2020-№1, Б 15-16.

ISBN 978-9943-6541-1-2



9 789943 654112